

# POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan  
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ \* AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

## VODIYNING TASHRIF QOG'OZI



Tahlil, talqin, taklif

### XODIMLAR IMIJINI OSHIRISHDA jamoatchilik fikri muhim



qancha mashaqqat, maqsadli va manzilli ishlar, «xalq himoyachisi» sifatida el dardi va osoyishtaligi yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining hissasi borligini ta'kidlash joiz.

Respublikamizda davlat rahbari boshchiligida ichki ishlar organlari xodimlarini xalqqa yaqinlashtirish, el-yurt dardi va tashvishi bilan yashashga, xizmat qilishga qaratilgan ulkan

islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda yangi ichki ishlar organlarini shakllantirish, aholiga o'z vaqtida va sifatli yordam ko'rsatadigan, ijtimoiy yo'naltirilgan professional xalqchil tuzilmaga aylantirish barobarida, uning imijini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Chunonchi, ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish

bo'yicha qator ijobiy ishlar qilindi. Osoyishtalik posbonlarini xizmat burchiga sadoqat, vatanparvarlik, halollik ruhida tarbiyalash, imijini oshirishga erishish vazirlik rahbariyatining doimo diqqat markazida.

#### IMIJ — «ISHONTIRISH» USULI...MI?

«Imij» so'zi ilmiy, ishbilarmonlik va publitsistik nutqda taxminan o'tgan asrning o'rtalarida qo'llana boshlanganiga qaramay, jamiyat rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq insonning ijtimoiy maqomiga ko'ra qanday xulq-atvor-ga ega bo'lishi kerakligi haqida tasavvurlar shakllangan va barcha davrlarda davlat arboblari hamda hokimiyat vakillari faoliyatida asosiy ko'nikmalardan biri sifatida ommaviy ongga ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib kelgan.

(Davomi 21-betda).

#### XALQ HIMOYACHISI

Yurtimizning dunyodagi «eng xavfsiz mamlakatlar» qatorida ekanligi haqidagi xabarni eshitish albatta barchamiz uchun maroqli. Biroq buning ortida

## Poytaxt namunasi

# XAVFSIZ MUHITNI YARATISH MASALALARI

## tanqidiy muhokama qilindi

**Chilonzor tumani hokimligida Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov raisligida, vazirlik sohaviy xizmatlari rahbarlari, tuman hokimligi mutasaddilari, huquqni muhofaza qilish organlari, mahalla yettiligi vakillari hamda mahalla raislari va mahallalarga birlashtirilgan mas'ullar ishtirokida hisobot yig'ilishi o'tkazildi.**

Unda davlatimiz rahbarining tumanda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, aholi uchun xavfsiz muhit yaratish borasida «poytaxt namunasi»ni shakllantirish bo'yicha topshirig'ining ijrosi yuzasidan hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar tahlil etildi.

Tadbirda vazir, general-leytenant Aziz Tashpulatov tumanda jinoyatchilikni jilovlash va aholi osoyishtaligini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilganligini, pirovardida hududda jinoyatchilik sezilarli kamayganini ta'kidladi. Shuningdek, bir qancha yo'nalishlar: yo'l infratuzilmasi, xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilik hamda ularning yechimi xususida to'xtaldi. Muhokama davomida mahallalarda jinoyatchilikning

barvaqt oldini olish, ijtimoiy profilaktika choralarini kuchaytirish, jamoat nazorati yo'nalishidagi kamchiliklarni bartaraf etish masalalari tanqidiy-tahliliy ruhda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz Mirzo Ulug'bek tumaniga tashrif buyurib, tuman hokimligi faoliyati, joylardagi bunyodkorlik va infratuzilmani rivojlantirish ishlari bilan yaqindan tanishdi. Hududda aholi farovonligini yanada oshirish, muammolarni tezkor aniqlash va hal etish bo'yicha «Aqlli tuman» platformasi ishga tushirilishi, tumandagi barcha mahalla vakillari bilan onlayn muloqot qilish, vaziyatdan doimo xabardor bo'lish imkoniyati yaratilganligi ijobiy baholandi. Toshkent shahrining barcha tumanlarida ushbu namu-

nali tajribani joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Chilonzor tumanining har bir mahallasidagi kriminogen vaziyat, aholining muammolarini o'rganish va hal etish darajasi, ta'lim muassasalarida xavfsizlikni ta'minlash, bozorlar, ko'ngilochar maskanlarda jamoat xavfsizligi bilan bog'liq har qanday muammoni o'z vaqtida bartaraf etish borasida mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda vazir erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, ayrim yo'nalishlarda mas'ul rahbarlar tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligiga e'tibor qaratdi. Xususan, aholi murojaatlarni qabul qilish va o'rganishda bir qator kamchilik mavjudligi aytib o'tildi. Ularni qisqa muddatlarda bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mutasaddi xodimlarga topshiriqlar berdi.

Shuningdek, yig'ilishda tuman hokimi hamda boshqa mas'ullarning fikrlari tinglanib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar va istiqboldagi rejalar belgilab olindi.

Vazir, general-leytenant A.Tashpulatov hududda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida «Beshchinor» mahallasi fuqarolar yig'ini binosi va atrofdagi infratuzilma, Bunyodkor ko'chasida olib borilayotgan ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarining sifati, aholi uchun yaratilayotgan qulayliklarni ko'zdan kechirdi.

«Botirma» mahallasida tashkil etilgan 24/7 sayilgoh faoliyati, unda aholi uchun yaratilgan qulayliklar va shart-sharoitlar hamda xavfsizlik choralari o'rganildi. Ishchi guruh tomonidan jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, hududda joylashgan xalqaro Puchon universitetida yoshlar bilan ishlash namunasi, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar, ta'lim muhiti va xavfsizlik masalalari o'rganilib, mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

**Azizjon FAYZIYEV,**  
podpolkovnik.

## VODIYNING TASHRIF QOG'OZI

**Kuni kecha yurtboshimiz tantanali ravishda ochib bergan «Burhoniddin Marg'inoniy» ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasiga qadam qo'ygan odam o'zini tarix va zamon chegarasida turib qolganday his etadi.**

Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq barpo etilgan majmua o'zining muhtasham bo'y-bashti va jozibas bilan sayyohlarni hayratga solmoqda.

Loyiha qiymati 1711 mlrd so'mni tashkil etuvchi majmuaning master rejasini turkiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda tayyorlangan bo'lib, ikki bosqichda amalga oshiriladi. Hozirda birinchi bosqich nihoyasiga yetib, mehmonxona, karvonsaroy, o'nlab savdo va xizmat ko'rsatish binolari, hunarmandlar markazi, milliy bozor va muzeylar qurib bitkazildi. Shuningdek, maqom teatri, shoir va rassomlar xiyoboni hamda kutubxona ham tashkil etildi.

Markazda barpo etilgan «Otabek va Kumush uyi»ning devorlarida «O'tkan

**35 gektar maydonni o'z ichiga olgan majmuada biznes markazi, 1500 o'rinli masjid, zamonaviy mehmonxonalar, 400 ta turli savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari, bozor va gastronomiya markazlari tashkil etilishi belgilangan.**

kunlar» romani sahnalarini jonlantirilgan bo'lib, odamda bir zum o'zini asar qahramonlari bilan yonma-yon turganday taassurot uyg'otadi.

Bir so'z bilan aytganda, sharqona latofat va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan ushbu majmua bir paytning o'zida Marg'ilonning tarixiy va zamonaviy timsolini dunyoga ko'z-ko'z etmoqda.

– Endilikda Farg'ona viloyatiga kelayotgan sayyohlar oqimi ikki hissaga ko'payishi kutilmoqda, – deydi viloyati IIB XTTB boshlig'i, podpolkovnik Ulug'bek Niyazov. – Bugundanoq mahalliy va xorijiy sayyohlar kelishni boshlab yubordi. Aholining kayfiyati juda yuqori. Ular bilan samimiy muloqot qilib, xotirjam va maroqli sayohat qilishiga yordam beryapmiz. Xodimlarimiz ingliz, rus, turk va boshqa tillarda bimalol so'zlasha oladi, sayyohlar bilan samimiy muloqotga kirishib, ularga amaliy yordam ko'rsatishmoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Farg'ona viloyati.



# IZCHIL VA TIZIMLI

**B**ugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning sifatli bilim olishi va xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylangan. Xususan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Xavfsiz maktab» tizimining hayotga izchil joriy etilishi farzandlarimizning xotirjam ta'lim olishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bolaning ostona xatlab ko'chaga chiqqanidan to maktab darvozasidan kirib, yana uyiga qaytguncha bo'lgan yo'li, nafaqat ta'lim va tarbiya, balki yaxlit bir xavfsizlik zanjiridir. Bu zanjirning mustahkamligi uchun esa maktab ma'muriyati yoki mahalla bilan bir qatorda, ota-onadan tortib har birimiz birdek mas'ulmiz.

Chilonzor tumanidagi 179-sonli umumta'lim maktabida yo'lga qo'yilgan tizim aynan mana shu zamonaviy xavfsizlik standartlariga yorqin misol bo'la oladi.

– Qariyb 750 nafar o'quvchiga ikki smenada ta'lim berib kelinmoqda, – deydi maktab direktori Gulnora Ubaydullayeva. – Ta'lim muassasamizda faoliyat yuritayotgan 50 nafar o'qituvchining barchasi oliy ma'lumotli bo'lib, ularning 75 foizi toifaga ega. Mazkur yuqori salohiyat o'zining amaliy natijalarini bermoqda. Xususan, o'tgan yilda maktab bitiruvchilarining 89 foizi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilindi. Joriy yilda esa bu ko'rsatkichni yanada oshirishni maqsad qilganmiz. Quvonarlisi, o'tgan yilning o'zidayoq 8 nafar o'quvchi xorijiy tillarni mukammal egallab, muddatidan oldin nufuzli xorijiy

universitetlar talabasi bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Maktabda sportga bo'lgan e'tibor ham yuqori. Milliy kurash to'garagi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, 43-bolalar va o'smirlar sport

20 nafari turli darajadagi chempionlik shohsupasiga ko'tarilgan. Shaxmat musobaqalarida maktab sha'nini munosib himoya qilayotgan Mahmudjon Muqimov maktabimizning faxri.

tekshirilib, kiberjinoatchilik va giyohvandlikka qarshi seminarlar ham muntazam ravishda o'tkazilmoqda.

Maktabning kirish joyida IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati xodimi faoliyat yuritadi. U nafaqat kirish-chiqishni nazorat qiladi, balki o'quvchilarni yo'ldan xavfsiz o'tkazishga ham ko'maklashadi. Muassasaning bir nechta joyiga «tashvish tugmalari» o'rnatilgan bo'lib, Tezkor harakatlanuvchi guruh bilan doimiy aloqa yo'lga qo'yilgan. Bu choralar begona shaxslarning hududga kirishi yoki yuz berishi mumkin bo'lgan tajovuzlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yangicha yondashuv asosida maktab qorovullari uchun ham maxsus o'quv tizimi joriy etildi. Ichki ishlar, FVV va sog'liqni saqlash mutaxassislari tomonidan tashkil etilgan kurslarda qorovullar yong'in xavfsizligi, birinchi tibbiy yordam va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha malaka oshirdi.

Maktabda zamonaviy texnologiyalar va ichki ishlar organlari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilib, farzandlarimiz uchun haqiqiy xavfsiz muhit yaratilgan. Ammo shuni unutmaslik kerakki, agar xavf tug'ilgan lahzada «tashvish tugmasi» o'z vaqtida bosilmasa yoki ichki ishlar organlariga shu zahotiyoq xabar berilmasa, o'rnatilgan qurilmalar ham shunchaki jihoz bo'lib qolaveradi. Shuning uchun har bir o'qituvchi, o'quvchi hamda maktab xavfsizligiga javobgar xodimlarning doimo hushyor bo'lishi talab etiladi. Bu – «Xavfsiz maktab» tizimi samarali ishlashining asosiy mezon.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



maktabi bilan imzolangan memorandum yosh iste'dodlar uchun keng yo'l ochdi. Bugungi kunda sport bilan muntazam shug'ullana-yotgan 28 nafar o'quvchidan

**Maktab hududida va har bir sinfxonada 80 dan ortiq kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Maktab chegarasi bo'ylab o'rnatilgan maxsus kameralar hatto qush uchib o'tganda ham signal beradi va monitorda ovoz chiqarib kuzatuvchini ogohlantiradi.**

Ta'lim muassasasida xavfsizlik masalasi eng zamonaviy texnologiyalar asosida hal etilgan.

– Xavfsizlik tizimining joriy etilishi natijasida o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarliklar hamda dars qoldirish keskin kamaygan, – deydi tuman IIOFMB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, leytenant Ruxsora Mamadazizova. – Ro'yxatda turgan 5 nafar o'quvchi ham faqatgina ichki tartib-qoidalarga rioya qilmagani uchun nazoratga olingan.

Unga birlashtirilgan IIV Akademiyasining ikki nafar kursanti amaliyot davomida profilaktik tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Darslarga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilar ta'limga qaytarilmoqda. Shuningdek, o'quvchilar yonida tig'li buyumlar yo'qligi muntazam



# SOG'LOM OILA – JAMIYAT TAYANCHI

**15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan joylarda «Namunali oila» ko'rik-tanlovining saralash bosqichlari bo'lib o'tmoqda**

Vazirlik markaziy apparatida o'tkazilgan tadbirda sohaviy xizmatlarda faoliyat yuritayotgan to'rt nafar xodim o'z oilasi bilan qatnashdi. Ishtirokchilar «Tanishtiruv», «Bu – mening oilam» hamda «Biz – kitobxon oilamiz» shartlari bo'yicha nafaqat o'z bilim va iste'dodlarini, balki aktyorlik mahoratlarini ham namoyish etdilar.



Tanlovning birinchi shartida oilalar milliy raqs, she'r va qo'shiqlar orqali namunali oilaning diqqatga molik jihatlarini, erishgan yutuqlarini ifodalab berdilar. Ikkinchi shartda esa oilaviy fotoalbomlar hamda oilaning jamiyatdagi o'rni, kasbiy faoliyati, o'zaro munosabatlari, an'ana va qadriyatlarini aks ettiruvchi videoroliklar tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Tanlovning yakuniy shartida ishtirokchilar o'zbek va jahon adabiyotining buyuk namoyondalari qalamiga mansub durdona asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berib, o'zlarining kitobxonlik salohiyatini namoyish qildilar.

Qiziqarli va murosasiz kechgan bahslar yakuniga ko'ra, birinchi o'ringa IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Ixtiyor Abdullayev oilasi munosib deb topildi va ko'rik-tanlovning respublika bosqichi yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rinni esa vazirlik Tezkor-qidiruv departamenti Jinoyat-qidiruv xizmati Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga

qarshi kurashish boshqarmasi katta tezkor vakili, kapitan Qobiljon Xalilov oilasi egalladi. IIV Malaka oshirish instituti o'qituvchisi, katta leytenant Bahodir Burxonov oilasiga uchinchi o'rin nasib etdi. Vazirlik Moliya va moddiy texnika ta'minoti departamenti Texnik ta'minlash markazi katta texnik mutaxassisi, serjant Jasur O'tayev esa «Ibratli oila boshlig'i» nominatsiyasi g'olibi deb topildi.

G'olib va sovrindorlar diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

**O'z muxbirimiz.**



Toshkent shahar IIBda bo'lib o'tgan tanlovda bosh boshqarmaning sohaviy xizmatlarida xizmat qilayotgan 11 nafar xodim va ularning oila a'zolari o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

Uch bosqichli sinovning «Tanishtiruv» shartida oilalar o'zlarining hayot tarzi, milliy qadriyatlarga sodiqligi va erishgan yutuqlarini badiiy chiqishlar, she'r va qo'shiqlar orqali ko'rsatib berishdi. «Bu – mening oilam» shartida esa ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan fotoalbom va maxsus videoroliklar orqali oilaviy an'analar, kasbga bo'lgan mehr hamda farzand tarbiyasidagi ibratli jihatlar gavdalantirildi.

«Biz – kitobxon oilamiz» shartida ishtirokchilarning intellektual salohiyati sinovdan o'tkazildi. Ajdodlarimiz merosi va jahon adabiyoti durdonalari bo'yicha berilgan savollar orqali xodimlarning oilasida kitobxonlik madaniyati qay darajada ekanligi imtihon qilindi.

Hakamlar hay'atining qo'yg'an baholariga ko'ra, birinchi o'rin

Yashnobod tumani IIOFMB HPB profilaktika katta inspektori, mayor Eldor Rasulov oilasiga nasib etdi. Ikkinchi o'ringa Yunusobod tumani IIOFMB HPB VEMB katta inspektor-psixologi, mayor Abdiqodir Yangiboyev hamda Mirobod tumani IIOFMB HPB VEMB inspektor-psixologi, katta ley-



tenant Akmal Uzoqovning oilasi loyiq ko'rildi. Uchinchi o'rinni esa Olmazor tumani IIOFMB HPB profilaktika katta inspektori, katta leytenant Erkinjon Haydarov va Shayxontohur tumani IIOFMB JTSB PPX otryadi PPX inspektori, safdor Nigora Tillaxanovaning oilasi egalladi.

Tadbir yakunida Bosh boshqarma rahbariyati g'oliblarga diplomlar, pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alarni topshirar ekan, har bir xodimning orqasida uni qo'llab-quvvatlovchi mustahkam oila turgani, bu esa jamiyat osoyishtaligini ta'minlashda muhim omil ekanini alohida ta'kidlab o'tdi.

**O'z muxbirimiz.**

*Toshkent shahri.*

**Nukus shahridagi Qoraqalpog'iston San'at saroyida IIV tizimida xizmat qilayotgan xodimlarining oila a'zolari o'rtasida «Namunali oila» ko'rik-tanlovining hududiy bosqichi o'tkazildi. Bundan ko'zlangan maqsad posbonlar o'rtasida «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» g'oyasini keng yoyish, oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltirish, namunali oilalarning hayotiy tajribalarini ommalashtirishdan iborat.**

Tadbirda vazirlikning sohaviy xizmatlaridan 16 ta oila ishtirok etdi. Tanlov natijasiga ko'ra, 1-o'ringa vazirlikning Tezkor qidiruv xizmati katta tezkor vakili, mayor R. Qalibekovning oilasi munosib topilib, ko'rik-tanlovning yakuniy bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Shuningdek, 2-o'rinni vazirlikning Probatsiya bo'limi katta psixologi podpolkovnik B.Qulmuratovning, 3-o'rinni Kegeyli tumani IIB Tashkiliy bo'linmasi navbatchi yordamchisi, safdor A.Shaukenovning oilalari egalladi. G'oliblarga



vazirlikning pul mukofoti, diplom va esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

– Oiladagi totuvlik xizmatdagi samaradorlik va yurtdagi osoyishtalik garovidir. Tizimda tashkil etilayotgan bu kabi tanlovlar va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar xodimlarning

oilalarini yanada mustahkamlashga, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga xizmat qiladi. Namunali oilalarning hayotiy tajribasini ommalashtirish esa yosh xodimlarda vatanparvarlik, burchga sadoqat, halollik, fidoyilik kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishning eng samarali usulidir. O'z navbatida bunday oilalar sonining ortishi jamiyatimizning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi, – deydi mayor R.Qalibekov.

Darhaqiqat, oila – tarbiya o'chog'i, ichki ishlar organlari xodimlari esa jamiyat ko'zglasidir. Mazkur ikki tushunchaning uyg'unligi tizimda tartib-intizom, oilada totuvlik, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

**O'z muxbirimiz.**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi.*

Safaringiz bexatar bo'lsin

## «MISKIN» BEKATI POSBONLARI

**M**amlakat iqtisodiy arteriyasi hisoblangan temiryo'llarda minglab yo'lovchilar va qanchalab yuklarning belgilangan manzilga o'z vaqtida va beshikast yetib borishi aynan tizimdagi tartib-intizomga hamda xavfsizlik choralariga bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi hamda uning tarkibiy bo'linmalari xodimlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jamoat tartibini saqlash, yo'lovchi va yuk poyezdlarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xodimlar mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, kecha-yu kunduz sergaklik bilan o'z vazifalarini bajarmoqdalar.

Quyida boshqarmaning «Miskin» bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi faoliyatiga to'xtalsak. Bo'linmaning xizmat hududi 172 kilometr masofani tashkil qiladi. Unda 3 ta temiryo'l vokzali, 6 ta bekat, 1 ta razyezd mavjud. Shuningdek, 17 ta avtomobil va temiryo'l kesishmalari joylashgan. Joriy yilning o'tgan 3 oyi davomida bo'linma xodimlari tomonidan temiryo'l obyektlarida turli huquqbuzarlik sodir etgan 195 nafar fuqaroga nisbatan qonuniy tartibda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

Misol uchun, mart oyida «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor-profilaktik

tadbiri davomida Urganch temiryo'l korxonasidan chiqayotgan fuqaro J.B.ga tegishli «Cobalt» rusumli avtotransport vositasi to'xtatilib tekshirildi. Shunda uning yukxonasida jami 210 litr dizel yoqilg'isi yashirin tarzda hech qanday hujjatlarsiz olib ketilayotganligi aniqlandi.



Shuningdek, o'tgan vaqt mobaynida qidiruvda bo'lgan 1 nafar shaxs qo'lga olindi. Mazkur ishlar bilan bir



qatorda, «Profilaktika kuni» doirasida «Xavfsiz hudud», «Yoshlar orasida psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar tarqalishiga qarshi kurashish», «Korrupsiyaga qarshi kurashish» tezkor tadbirlari olib borilyapti.

Bundan tashqari, «Temiryo'llarda xavfsiz kun» tadbiri sohada xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos mexanizmiga aylangan. Bu jarayonda Huquqbuzarliklar profilaktikasi va Patrul-post xizmati xodimlari hamkorlikda temiryo'l izlarini ko'zdan kechirib, atrofdagi xonadonlarda yashovchi aholi bilan bevosita muloqot o'tkazmoqdalar. Bu esa har bir qarich yerning nazoratda bo'lishini va xavf-xatarlarning vaqtida bartaraf etilishini ta'minlamoqda.

– Albatta, hududning tinchlik-osoyshtaligini saqlash umumiy vazifa hisoblanadi. Shu bois, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida IIB xodimlari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari, harbiylashgan qo'riqlash komandasi a'zolari va temiryo'l korxonalari ishchilari hamkorlikda xizmat olib borishmoqda, – deydi «Miskin» bekatida XTB boshlig'i, podpolkovnik Baynazar Allamjarov.

Sir emaski, ayrim paytlari ehtiyotsizlik tufayli temiryo'llarda baxtsiz hodisalar yuz berib turadi. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida 19 ta banner o'rnatilib, aholi orasida profilaktik-tushuntirish ishlari o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda «Miskin-Nukus» temiryo'l peregoni atrofida sim to'siqlar o'rnatilmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Kasb fidoyisi



## HAR QADAMDA HUSHYOR

**S**herobod tumani ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan yo'l-patrul xizmati katta inspektori, serjant Shuhrat Rasulov o'z kasbiga fidoyi insonlardan biri.

Tizimdagi xizmat faoliyatini Termiz shahar IIB PPX xodimi sifatida boshlagan Shuhrat Termiz tumani IIB Navbatchilik qismida, Muzrabot, Qiziriq va Angor tumanlari ichki ishlar organlarida davom ettirib, katta tajriba to'pladi. Har bir lavozimda u o'zining sadoqati, mas'uliyati va fidoyiligi bilan ajralib turdi.

Bugungi kunda u yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l harakati qoidalariga rioya etmagan haydovchilarni ogohlantirish kabi muhim vazifalarni vijdonan ado etmoqda. Uning kundalik mehnati ortida yuzlab insonlar hayoti va salomatligini asrashdek ulug' maqsad mujassam.

Shuhrat Rasulov nafaqat xizmatda, balki hayotda ham to'g'riso'z, ochiqko'ngil va adolatparvar inson sifatida tanilgan. U ishini o'z vaqtida, yuqori mas'uliyat bilan bajarishi orqali hamkasblari va atrofdagilarga o'rnak bo'lib kelmoqda.

U sportning futbol turi bilan muntazam shug'ullanadi. Oilada esa mehribon ota sifatida 4 nafar farzandni tarbiyalab, ularni ham vatanparvar va intizomli insonlar bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor qaratadi.

Xizmat faoliyati davomida u ko'plab qonunbuzilish holatlarini aniqlab, qonun ustuvorligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. Ayniqsa, qidiruv tadbirlarida faol ishtirok etib, qidiruvda bo'lgan shaxslarni ushlabda jonbozlik ko'rsatgani alohida e'tirofqa loyiq. Uning samarali mehnati IIB rahbariyati tomonidan bir necha bor munosib rag'batlantirilgan.

Shuhrat Rasulov kabi o'z kasbiga sidqidildan yondashadigan, xalq tinchligi va xavfsizligini ustuvor biladigan fidoyi xodimlar jamiyatimiz tayanchidir.

**Feruz RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

9 май — Хотира ва қадрлаш куни

## «ТУШЛАРИМГА КИРИНГ, ДАДАЖОН!...»

Хотира ва қадрлаш куни арафасида қалбимизда ўтмишдаги воқеалар, яхши инсонлар ва улар қолдирган излар яна тирилади. Айниқса, отасини соғиниб яшайдиган мурғак қалблар борки, уларнинг дардини сўз билан ифодалаш қийин...

Фарғона шаҳридаги 4-умумтаълим мактабининг 4-синф ўқувчиси Рашидбек Баҳодиров ана шундай болалардан бири. Барча болалар қатори, ҳар куни эрталаб жонажон мактабига шошилади. Аммо унинг куни бир одат билан бошланади – аввалига дадасининг суратига узоқ тикилади, сўнгра хизмат кийимини бир силаб қўяди...

Гўё дадаси унга меҳр билан боқиб тургандай, «Ўғлим, оқ йўл, яхши ўқиб, «5» баҳо олиб кел!» деб кузатиб қўяётгандек...

Рашидбекнинг дадаси – капитан Рустам Қурбонов Фурқат туманида туғилган бўлиб, Ватан тинчлиги ва халқ осойишталиги йўлида ўз жонини фидо қилган инсонлардан саналади. У 2015 йилда ички ишлар органлари сафига кириб, 10 йилга яқин халққа садоқат билан хизмат қилди. Фарғона шаҳар ИИБда профилактика инспектори, инспектор-психолог лавозимларида ишлаб, ёшлар ўртасида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга муносиб ҳисса қўшди. Қанча-қанча

адашган ёшларни тўғри йўлга солиб, жиноятларнинг олдини олди.

2024 йил апрель ойида Ўзбекистон тумани ИИБ ЖХХ ХПБ профилактика инспектори этиб хизматга тайинланган Р. Қурбонов ўзига бириктирилган «Қайнар» маҳалласи аҳолиси билан тезда тил топишиб, намунали хизмат олиб бораётганди.

19 май куни соат 23:00ларда тунги хизматга жалб қилинган катта лейтенант Рустам Мирзаев ҳамда капитан Рустамжон Қурбоновлар ҳудуд бўйлаб профилактик ишлар олиб бораётганда йўл-транспорт ҳодисасига учрашади. Кўрсатилган тиббий ёрдамга қарамасдан, капитан Рустам Қурбонов 31 май куни Қўқон шаҳар марказий шифохонасининг жонлантириш бўлимида вафот этди.

Аммо у кетмади...

У падари бузруквори Баҳодиржон ота, волидаси Лобархон ая, турмуш ўртоғи Сарвиноз, қизи Гулсанам ҳамда суюкли ўғли Рашидбекнинг қалбида мангу яшаб келмоқда.

– Турмуш ўртоғим болалигидан



ички ишлар ходими бўлишни орзу қилиб улғайган экан, – дейди Сарвиноз Якубова. – Олийгоҳни тамомлаганимиздан сўнг оила қурган вақтимизда таълим соҳасида ишларди. Барибир орзулари уни тинч қўймади. Олий маълумотли номзодлар ўртасида ўтказилган синовларда қатнашиб, 2015 йилда ички ишлар органларига қабул қилинди. Ўша йили бизга омад қўшалок келиб, Рашидбек дунёга келди. Ўғлим эсини танибдики, дадасини хизмат кийимида кўрган ва доим у билан фахрланган.

Рашидбек дадасини тез-тез тушларида кўради. Балки у тушлар орқали дадаси билан гаплашар, дардлашар... Балки «мен яхши ўқийман, сиз орзу қилган инсон бўламан», – дея ваъда берар...

Бугун ҳам у дадасининг суратига бир қараб қўйди-ю, мактабга шошилди. У ўз орзулари учун эмас, балки дадасининг орзулари учун ҳам яхши ўқишга интилади. Ҳар бир яхши баҳоси – дадасига ҳада, ҳар бир ютуғи – унинг хотирасига эҳтиром.

Капитан Рустам Қурбонов каби фидойи инсонлар хотираси ҳеч қачон ўчмайди. Улар халқ қалбида, фарзандлари тақдирида, тинч осмонимизда абадий яшайди.

Рашидбек эса ҳар кеча юракдан бир илтижо қилади:

– Тушларимга кириб, дадажон...

**Абдувосит СИДИҚОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

Тўйхат ўрнида

## ОЛОВЛАРДА ТОБЛАНГАН УМР

Тақдир кимгадир осуда меҳнат фаолиятини раво кўрса, кимгадир хавф-хатар билан юзма-юз келиш баробарида мардлик кўрсатиш қисматини битади. Истеъфодаги подполковник Қодиржон Жўраев ана шундай шарафли, аммо ниҳоятда машаққатли йўлни танлаган, ўз ҳаётини эл-юрт осойишталиги ва ёнғин хавфсизлигини таъминлашга бағишлаган инсонлардан биридир.

1951 йилда Тошкентнинг зиёли хонадонларидан бирида туғилган Қодиржоннинг феъл-атворида отаси – Носир аканинг букилмас қатъияти ҳамда онаизори Мунаввар опанинг чексиз меҳри, фидойилиги мужассам эди. Ундаги интилиш ва қатъият Тошкент авиация техникумини имтиёзли диплом билан тамомлашига, сўнгра ҳарбий хизматда тобланишига замин яратди. Ҳарбий хизматдан «сержант» унвони билан қайтган шижоатли йигитнинг олдида катта ҳаётнинг кенг уфқлари намоён эди.

1973 йил лавҳамиз қаҳрамонининг ҳаётида туб бури-

лиш бўлди. Ички ишлар идоралари тизимига, хусусан, ёнғин хавфсизлиги соҳасига қадам қўйган ёш мутахассис ўз фаолиятини ўт ўчирувчи

сифатида бошлади. Қалбидаги илмга чанқоқлик уни аввал Тошкент политехника институти, сўнгра ИИБ Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби сари етаклади.

Хизмат йиллари давомида Қодиржон ака тажрибали устозлардан сабоқ олди. Унинг учун жиловланган ҳар бир аланга – шунчаки касбий вазифа эмас, балки инсонлар ҳаёти ва давлат мулкани асраб қолишдек муқаддас бурч эди.



Архив сурат.



Қодиржон Жўраевнинг юксак профессионалиги ва ташкилотчилик салоҳияти раҳбарият томонидан муносиб баҳоланиб, у Давлат ёнғин назорати бўлими бошлиғи ўринбосари, кейинчалик эса Транспорт ИИБ Ёнғин хавфсизлиги бўлими бошлиғи каби масъулиятли лавозимларга тайинланди.

Чорак асрдан зиёд шарафли хизмат фаолияти давомида кўп маротаба тақдирланган, «Ёнғин хавфсизлиги аълочиси» кўкрак нишони соҳибига айланган

Қодиржон Жўраев бугун пенсияда. Шунга қарамай, ҳамон сафда. У айти пайтда ИИБ Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъминлаш департаменти Фахрийлар кенгашининг фаол аъзоси сифатида ёш ходимларга ўз бой тажрибасини, касб сирларини беминнат ўргатиб келмоқда.

Бугун Қодиржон Жўраевнинг ўнлаб шогирдлари республиканинг турли гушаларида эл тинчлиги ва осойишталиги йўлида хизмат қилишяпти. Зеро, фидойи устоз учун энг олий мукофот – шогирдлар камолидир.

Яқин кунларда табаррук 75 ёшни қаршилайдиган лавҳамиз қаҳрамонига мустақам соғлик, узоқ умр ва оилавий тотувлик тилаб қоламиз. Улуғ ёшингиз қутлуғ бўлсин, азиз устоз!

**Аброр ПОЁНОВ,**  
катта мутахассис-мухбир, катта сержант.

Xavfsiz turizm

# SAYYOHILAR OQIMI ORTMOQDA



«Shahrisabz» turistik markazi mamlakatning turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Markazning Shahrisabz tumanining tog'li hududida, dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgani uni mavsumlararo turizm uchun ham jozibador qiladi.

Maskanga bir kunda 10 ming nafargacha mahalliy va 400-500 nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurmoqda. Yillik hisobda 1,5 milliondan ortiq mahalliy va 60 mingdan ziyod xorijiy sayyoh qabul qilingani Markazga bo'lgan yuqori talabni ko'rsatadi.

Turistik markaz faoliyatida xavfsizlik masalasi alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda ko'p bosqichli tizim joriy etilgan. Qashqadaryo viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tun-u kun xizmat o'tamoqda. Sayyohlar tashrifi ko'pligini inobatga olib, xavfsizlikni samarali ta'minlash



borot shoxobchasi (mobil post) tashkil qilingan. Texnik jihatdan ham xavfsizlik tizimi yetarlicha rivojlangan, 165 ta videokuzatuv kamerasi o'rnatilgan. Ularning orasida PTZ, avtotransport raqamlarini aniqlovchi va shaxsni identifikatsiya qiluvchi zamonaviy qurilmalar mavjud. Bularning barchasi raqamli nazorat imkoniyatlarini kengaytiradi. Hamma kameralarning yagona tizimga integratsiya qilingani esa ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va xavf-xatarlarni barvaqt aniqlashga xizmat qiladi.

maqsadida, qo'shimcha tarzda viloyat IIB Shimoli-sharqiy mintaqaviy hudud YHX va PPX otryadi, Qo'riqlash xizmati xodimlari, Shahrisabz tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektorlari uchta patrullik yo'nalishida o'zaro muvofiqlashgan holda faoliyat olib bormoqda. Ushbu yondashuv sayyohlar oqimi yuqori bo'lgan hududlarda jamoat tartibini saqlash va tezkor chora ko'rish imkonini oshiradi.

Viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari uchun Markaz hududidan xizmat xonasi ajratilgan. Shuningdek, to'rtta ko'chma ax-

Shu bilan birga, sayyohlar murojaatlari tahlili ham xizmatlar samaradorligini baholash imkonini beradi. Joriy yilning o'tgan qismida 10 mingdan ortiq sayyohlarga boshqarma XTTB xodimlari tomonidan amaliy yordam ko'rsatilgani Markazda xizmat ko'rsatish va axborot bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

**Ulug'bek RAJABOV,**  
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.

Giyohvandlik – asr vabosi

Barkamol avlodni tarbiyalash va yoshlarga g'amxo'rlik qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston yoshlari o'z bilim va salohiyati bilan nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosda ham munosib o'rin egallamoqda.

Shu bilan birga, global muammolardan biri bo'lgan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi yoshlar tarbiyasiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, arzon va oson topiladigan sintetik giyohvandlik vositalari hamda ayrim kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining tarqalishi xavotirli holatdir.

Giyohvandlik asr vabosi sifatida inson salomatligiga, oilaviy muhitga va jamiyat taraqqiyotiga katta zarar yetkazadi. Ushbu illat insonni jismonan va ma'nan tanazzulga olib kelib, ko'p hollarda jinoyat sodir etishga sabab bo'ladi.

So'nggi yillarda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarda yoshlarning ishtiroki ortib borayotgani ayniqsa tashvishlidir. Bu holat ko'pincha ularning yetarli nazoratsiz qolishi, huquqiy va tibbiy bilimlarning yetishmasligi bilan izohlanadi.

## KELAJAK KUSHANDASI



Bugungi kunda giyohvandlik vositalarini tarqatishda zamonaviy usullar, jumladan internet orqali «kontaktisiz» savdo qilish holatlari kengaymoqda. Bunda, ayniqsa, talabalar va o'quvchilarni jalb qilish holatlari kuzatilmoqda.

Shu bois davlatimiz tomonidan mazkur illatga qarshi kurashish, uning oldini olish va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan keng qam-

rovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, narchojinoiyatlar uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda, profilaktika ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda hamda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, ta'lim muassasalarida targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirish, giyohvandlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Yoshlar bilan uchrashuvdan lavha.

Bugungi kunda dunyo «an'anaviy» zaharlardan ko'ra xavfliroq bo'lgan «sintetik» balalar bilan yuzlashmoqda. Ular rang-barang niqoblarda, turli nomlarda yoshlarning ijtimoiy tarmoqlariga va xayollariga suqilib kirmoqda. Bu zahar inson ruhiyatini shu qadar tez parchalaydiki, ba'zan qayta tiklanish uchun fursat ham qolmaydi.

Mazkur illatning eng ayanchli tomoni shundaki, u faqat bir kishini o'ldirmaydi. *Giyohvandlik bir vaqtning o'zida otaning qaddini bukadi, onaning sochlariga vaqtidan oldin oq tushiradi va go'daklarning*

shodligini o'g'iraydi. Giyohvand yashaydigan xonadonda baxt mehmon bo'lmaydi. U yerda faqat umidsizlik va tugamas iztirob hukmronlik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, giyohvandlikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki butun jamiyat oldida turgan muhim vazifadir. Har bir yosh o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qilib, sog'lom turmush tarzini tanlashi va zararli illatlardan yiroq bo'lishi lozim.

**Ruslanbek MATCHANOV,**  
podpolkovnik.

## Profilaktika inspektorining bir kuni

# AHILLIK – YAXSHILIK ALOMATI

**Shofirkon tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Husen Yodgorov «Bog'iafzal» mahallasi tinchligi va osoyishtaligiga mas'ul. Quyida inspektorning bir kunlik xizmat faoliyati orqali hududda olib borilayotgan ishlar to'g'risida so'z yuritiladi.**

**Soat 07:00.** Lavhamiz qahramoni mahalla hududidan o'tgan «M-37» avtomagistral yoqasida joylashgan 16-sonli umumta'lim maktabiga borib, o'quvchilarning harakat xavfsizligini ta'minladi. Keyin xizmat xonasi tomon yo'l oldi. Tuman IIB rahbariyati tomonidan berilgan har bir topshiriq va vazifani ish daftariga qayd etdi.

**Soat 08:30**larda mahalla raisi Furqat Qudratov va faollar bilan topshiriqlarni rejalashtirib, hudud holati bo'yicha vaziyatni muhokama qilishdi. Oqsoqol ishni So'fiyon qishlog'idagi K.T. oilasini o'rganishdan boshlashni taklif qildi. Chunki bu yosh oilaning arzimasi sabab bilan kunora janjallashib turishgani yaxshilikka olib kelmasligini bilishardi. Mahalla yettiligi oila a'zolari bilan suhbatlashib, bunday yurishning oqibati yomon bo'lishini, har bir daqiqa g'animat ekanligini atroflicha tushuntirishdi. Ayniqsa, xotin-qizlar faoli Shahlo Jo'rayevaning kelinchakka vaziyatni hayotiy misollar bilan tushuntirgani juda o'rinli bo'ldi.

– Furqat aka, O'.Boltayevaning xonadoniga ham kirib o'tsak. Turmush o'rtog'i bilan kelishmovchiligi bor ekan, – deya mayor H. Yodgorov avtomashina rulini murojaatchi hovlisi tomon burdi.

– Oilaga bir darz ketsa yomon bo'larkan. Ular ham ahil yashab kelishayotgan edi. Mayli, ilojini qilib oilani saqlab qolishimiz kerak, – dedi mahalla raisi ham.

Shunday qilib, er-xotinning o'zaro nizolarini o'rganishdi. Profilaktika katta inspektori ikkisidan ham ko'rsatuv oldi. Vaziyatni atroflicha muhokama qilishib, uy bekasiga himoya orderi berildi.

**Soat 10:30**larda mayor H. Yodgorov Bog'iafzal qishlog'ida istiqomat qiluvchi, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan M.H. bilan suhbatlashmoqchi edi. U ishga ketgan ekan. Turmush o'rtog'i eri o'zgarganini, hozir ichmayotganini va bolalariga mehribon bo'lib qolganini aytdi. Ayolning yuzidagi tabassumdan bildikki, oiladagi ko'ngilsizliklar barham topgan.

– Shu qishloqda ekansiz. Ruhii kasallar ro'yxatida turuvchi N. Boymurodovning holidan xabar olmoqchi edik, bizga hamroh bo'lsangiz, – deb qoldi Oilaviy shifokorlik punkti patronaj hamshiralari profilaktika katta inspektoriga. – Davolanishga muhtojligini bilishimiz kerak.

huquqbuzarlik holatlari kamayganini, yaqinda «Pashmon» mahallasida xizmat ko'rsatayotgan profilaktika inspektori, leytenant Abror Muslidinov bilan bedarak yo'qolgan bir shaxsni hamjihatlikda aniqlab, qarindoshlariga topshirishganini gapirib berdi.



– Mayli, nima desangizlar shu. Ro'yxatdagilarni ham o'rganib chiqamiz, – dedi mayor H. Yodgorov va o'zi yo'l boshladi.

N. Boymurodovning holati yaxshi, davolanishga hojat yo'q ekan. Shunday bo'lsa ham, oila a'zolariga kasallik qo'zg'alishining dastlabki ko'rinishlarini yana bir karra tushuntirishdi. Keyin qo'shni qishloq tomon odimlashdi.

Mayor H. Yodgorov yo'l-yo'lakay mahalla yettiligi, qolaversa, qo'l ostidagi uch nafar hamkasb-u shogirdi bilan doim yonma-yon, bamaslahat xizmat olib borayotgani bois ish unumdorligi oshayotgani, jinoyat va

**Soat 14:30**lar atrofida profilaktika katta inspektorining uyali telefoni jiringlab qoldi. Qo'ng'iroq qilgan «Taliya» qishlog'ida istiqomat qiluvchi tadbirkor ekan. U noma'lum shaxs to'yxona atrofida aylanib yurganini ma'lum qildi. Profilaktika katta inspektori hamrohlari, mahalla raisi, hokim yordamchisi S. Abdullayev hamda yoshlar yetakchisi S. To'xtaqluovlar bilan birgalikda zudlik bilan aytilgan manzilga yetib borishdi. Ular muqaddam sudlangan va ayni paytda probatsiya nazoratida turuvchi, ko'zlari bejo M.M. ni biroz kuzatishdi. U kuzatuv ostida ekanligini sezdimi yoki boshqa sababmi,

harqalay fikridan qaytdi. Ammo mayor H. Yodgorovga o'g'rilik qilmoqchi bo'lganini tan oldi. Osoyishtalik posboni u bilan profilaktik suhbat olib bordi.

– Beglik qishlog'ilik Botir akaning oilasidan ham bir xabar olsak, – dedi mahalla raisi F. Qudratov hamrohlari-ga va qo'shib qo'ydi. – Ayni bahor payti, yangani bilasizlar-ku?!

– Ko'pchilik borsak bo'lmaydi. Qolaversa, Taliya qishlog'iga keldik. A. Fayziyevga o'tgan oy subsidiya asosida sav nasosi olib berganimizdan xabaringiz bor. Biz tushib qolib, ahvolni o'rgansak yomon bo'lmasdi, – deya hokim yordamchisi hamrohlari-ga yuzlandi.

– Ma'qul. Qaytishda olib ketamiz, – dedi mayor H. Yodgorov va yo'l-yo'lakay raisga A. Fayziyev qilgan xatosini tushunib, ancha o'zgarganini, kreditga olgan 4 bosh qoramol va 16 bosh qo'ylarni parvarishlayotganini, eng asosiysi, oila tinchligi ta'minlanganini gapirib bordi.

Botir aka tomorqasida ishlayotgan ekan. Ularni quchoq ochib kutib oldi. Biroz suhbatlashib, hammasi joyidaligini bilgach, osoyishtalik posboni «Ish ko'p, hali to'ylarga kelamiz», deya qo'zg'alishdi.

Profilaktika inspektorining hamisha vaqti tig'iz bo'ladi. Bir masala ortidan ikkinchisi, uchinchisi kutib turadi. Hammasiga ulgurish kerak...

Yurtimizda «Xavfsiz va sog'lom yurt» tamoyili asosida tungi paytlarda olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida mahallalar jinoyatdan xoli hududlarga aylanmoqda. Lavhamiz qahramoni ham **kechki soat 22:00**larda ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan fuqarolarning yashash xonadonlarini muntazam tekshiradi. Yana oshxona va ko'ngilochar joylarda jamoat tartibini saqlash hamda huquqbuzarliklar sodir etilmasligi bo'yicha tushuntirish ishlarini o'tkazadi. Bundan tashqari, tungi paytda ko'chalarda maqsadsiz yurgan fuqarolar bilan profilaktik suhbat olib boradi.

... Tun osuda o'tmoqda. Mayor Husen Yodgorov bugungi xizmatidan ko'ngli xotirjam bo'lib, xizmat uyi tomon oshiqdi. Rafiqasi Gulsanamxon uni ochiq chehra bilan qarshi oldi...

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Buxoro viloyati.*

## Foydali bot



IIV Malaka oshirish instituti mutaxassislar tomonidan yaratilgan «Psixotrop» Telegram boti giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi psixotrop moddalarga qarshi kurashishda zamonaviy yechimdir.

Mazkur botdan barcha, jumladan, maktablar va oliy o'quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar, ota-onalar ham bemalol foydalanishi mumkin. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idora vakillariga dori vositalarining huquqiy maqomini tezkor aniqlashda samarali yordam beradi.

Botga [https://t.me/Psixonotrop\\_moi\\_bot](https://t.me/Psixonotrop_moi_bot) havolasi orqali yoki quyidagi QR-kod orqali ulanish mumkin.




Ma'naviyat va ma'rifat darsi

# XOTIRA – AZIZ, QADR – MUQADDAS

Inson qadrini e'zozlagan davlat hech qachon kam bo'lmaydi. O'tganlarni xotirlagan xalqning ertasi yorug' bo'ladi. Har qanday xalq o'zining og'ir va mashaqqatli kunlaridan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqarishi zarur.

## 9-may – Xotira va qadrlash kuni



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

Azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Xotirlash, qadrlash, hurmatlash tuyg'ulari qon-qonimizga singib ketgan qadim qadriyatlarimizning bir ko'rinishidir. Ushbu tuyg'u qalbimizdan joy olarkan, u avvalo, ma'naviyatimizni boyitadi, hayotimizni ezgulik nurlari bilan yoritadi, avlodlarga hamisha to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

9-may – Xotira va qadrlash kuni yurtimizda insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat ulug'lanishining yorqin bir namunasi. Bu kunni xalqimiz xotira va qadrlashga e'tibor sifatida yuksak qadrlaydi. Ushbu tadbir zamirida xalqimiz ong-u shuurida o'tganlarni yod etish, tiriklarni qadrlashdek ezgulik mujassam.

Ajdodlarimizning xotirasiga hurmat ko'rsatish, ularning ezgu ishlarini davom ettirish, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yurtimiz ravnaqiga o'z namunasi bilan xizmat qilayotgan keksalarni e'zozlash hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi yurtimizda tinchlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlar xotirasini yod etish, bugun oramizda sog'omon yashayotgan urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin amaliy ifodasidir.

Il jahon urushida o'sha paytda respublikamiz aholisini tashkil etgan 6 million 800 ming kishidan qariyb 2 million nafari frontga safarbar etilgan. Shundan 538 ming kishi jang maydonlarida halok bo'lgan, 158 ming nafar yurtdoshimiz bedarak ketgan, yana 100 ming odamning daragi hali ham topilgani yo'q.

Ana shu 2 millionga yaqin jasur ota-bobolarimizning g'alabaga qo'shgan hissasi juda katta bo'lib, buni hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Ulardan 214 ming nafari urushda ko'rsatgan ulkan jasorati uchun jangovar orden va medallarga, 301 nafari Qahramon unvoniga sazovor bo'lgani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi «Slava» ordeni bilan taqdirlangani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yillarida Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilariga, front ortida mehnat qilgan faxriylarga e'tibor va g'amxo'rlik yanada kuchaydi. Xalqimiz qadim-qadimdan keksalarga yuksak hurmat ko'rsatib keladi. Chunki ular bizga hayotda to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan maslahatchilarimiz, hayotimizga ko'rk bo'lguvchi tabarruk zotlardir. Xalqimiz tomonidan «Qarisi bor uyning parisi bor» degan hikmat bejiz aytilmagan. Bugun biz qariyalarimizni asrab-avaylashimiz, qo'ldan kelgancha ularga izzat-ikrom ko'rsatib, duolarini olishimiz, tinch va osoyishta kunlarimizning qadriga yetib, shukronalar keltirishimiz zarur.

Urushda halok bo'lgan har bir o'zbekistonlik – Vatanimiz farzandi edi. Ularni yoddan chiqarishga hech birimizning haqqimiz yo'q. Istiqloq yillarida 35 jildlik «Xotira» kitobi chop etildi, urush qurbonlarining nomi mamlakat poytaxtidagi Xotira maydoniga o'rnatilgan «Temir daftar»ga zarhal harflar bilan bitib qo'yildi.

Inson bor ekan, xotira – muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Bu har qanday kishini ma'nan rag'batlantiradi, uni

yashashga, yaratishga, el-u yurtga sadoqat va qat'iyat bilan xizmat qilishga undaydi. Zero, xotira hamisha aziz, qadr muqaddasdir.

Xotira deganda, biz bu foniq dunyodan o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir.

Qadrlash degani – asrlar davomida ona diyorimizni, xalqimizning ozodlik va istiqloqini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoyi vatandoshlarimizni yodga olmoq, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatmoqdir.

Ta'kidlash joizki, bu muborak kunda, xalqimizning asrlar davomida orzu-niyat qilib, intilib kelgani – hurriyat va ozodlik yo'lida hayotini qurbon qilib shahid ketgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Namoz botir kabi xalq qahramonlarini, Qodiriy, Behbudiy, Munavvar qori, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir singari millatimiz fidoyilarini eslash ham qarz, ham farzdir.

Zero, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, deb bejiz aytilmagan. Vatan, millat, din yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimiz xotirasi bizlar uchun qanchalik ardoqli va muqaddas bo'lsa, keksalik yoshiga yetgan ulug'larimizning qadriga yetish, hurmatlarini joyiga qo'yish ham shunchalik muhimdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayramini nishonlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»-



gi farmoni hamda «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qabul qilinadi. Shu asosda mazkur bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga ma'lum miqdorda bir martalik pul mukofoti berish yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, yolg'iz va kam ta'minlangan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining turarjoyi va uy xo'jaliklarini ta'mirlash, obodonlashtirish hamda o'z uy-joyiga ega bo'lmaganlarga turarjoy ajratish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Davlat tarafidan ko'rsatilayotgan bu g'amxo'rliklarning barchasi umumxalq bayrami mazmunidagi qadrlash mohiyatining amaliy jihatini yaqqol namoyon etadi.

Bu dunyoda bir buyuk haqiqat bor: kelajak avlodlarning erkinligi, tinchligi va baxt-u saodati yo'lida qilingan mardlik va jasorat xalqimiz xotirasida abadiy saqlanib qoladi. Urush va mehnat fronti faxriylarini e'zozlash, ularning xotirasini abadiylashtirish biz uchun hamisha muqaddas burchdir. Bugun biz o'z faxriylarimiz va qahramonlarimizga chuqur ehtirom ko'rsatmoqdamiz. Jang maydonlaridan qaytmaganlar va front orqasida mehnat qilganlar xotirasi oldida bosh egamiz. Ularning ismlari qalbimizda abadiy qoladi.

**G'ayratulla SHUKUROV,**  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.



Qoraqalpoq tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Тошкентнинг қадимий гўшаларидан бири — «Бешқайрағоч» маҳалласига кириб боришимиз биланоқ қалбимизга илиқлик инди. Файзли кўчалар, саранжом ҳовлилар, эшик олдида суҳбат қуриб ўтирган нурунийлар — бу гўшада ўзбекона муҳитнинг барча жиҳатлари мужассам эди. Одамлари ҳам очиқкўнгил, самимий.

— Кечирасиз, Мелибой отанинг хонадонлари қайси томонда? — деб сўрадик йўл-йўлакай учраганлардан.

— Тўғри келяпсизлар, — деди улардан бири. — Шу кўчанинг бошида, масжид билан ёнма-ён.

Хонадонга етиб борганимизда, остонада Учтепа тумани ИИОФМБ бошлиғи ўринбосари, подполковник Шарапат Қудияров билан юзма-юз келдик.

— Устоздан тез-тез хабар олиб турамиз, маслаҳатларини эшитамиз, — деди у киши. — Бугун ҳам дуоларини олиб кетай дегандим.

Ҳовлидан биз томонга дадил қадамлар билан бир киши кела бошлади. Бу — 95 ёшли Мелибой ота эди. Бир қарашдаёқ ҳайратда қолдим: у киши мен тасаввур қилгандек кекса, ҳаракатлари суст отахон эмас, аксинча, бардам, қомати тик, кўзлари чақнаб турган, ғайрат-шижоатга тўла инсон эди. Суҳбатимиз ҳовлидаги сўрида, бир пиёла чой устида бошланди. Табиийки, илк саволим шу бўлди:

— Отахон, шу ёшда ҳам бундай тетик ва соғлом юришингизнинг сири нимада?

— Ҳар куни эрталаб соат бешда уйғонаман, — дейди Мелибой ота. — Сўнг камида ярим соат машқ қиламан. Танани ҳаракатда ушлаш керак. Овқатланиш ҳам меъёрида, тартиб билан бўлиши шарт.

У киши гапирар экан, нигоҳим ҳовлининг бир чеккасидаги оддий, аммо тартибли қилиб жиҳозланган спорт бурчагига тушди. У ерда турник, бокс қопи, қўлқоплар бор эди...

— Ёшингиз юзга яқинлашиб қолибди, — дедим эҳтиром билан. — Ортга назар ташласангиз, нималар ёдингизга тушади?

— Болалигим... жуда оғир ўтган...

Бу икки оғиз сўз ортида бутун бир даврнинг аламли ҳақиқати мужассам эди. Уруш йиллари. Очарчилик. Етимлик. Тўққиз нафар фарзандли оила.

— Баҳоргача оч ўтирардик, — дейди у. — Беш-олти дона майизга ҳам қаноат қилган кунларимиз бўлган. Баҳор келганда қўй сути — энг катта неъмат. Аммо уни ҳам бемалол ичиш насиб қилмасди: сутдан тайёрланган маҳсулотлар фронтга юбориларди.

Уруш йиллари бир оиладан ҳам отаси, ҳам катта акаси урушга кетади. Жанг майдонларидан омон қайтган ака пахта далаларида заҳарланиб, ҳаётдан бевақт кўз юмади. Унинг ортидан бир йилда яна уч инсон: келинойиси, онаси ва отаси ҳам бирин-кетин бу ёруғ оламни тарк этишади. Шу тариқа

Дарҳақиқат, ҳаёт синовлари Мелибой отани эрта улғайтирган эди. У мактабни тамомлаб, кўп ўтмай муддатли ҳарбий хизматга жўнайди. Армия сафидан қайтгач, устозининг тавсияси билан пойтахтга йўл олади. Унинг мақсади — Милиция мактабида ўқиш эди.



ичига ютиб, яна ҳаёт йўлини давом эттирди. Ҳар қанча қийинчилик бўлмасин, ортга қайтмади. Синиш ўрнига, янада тобланди.

Орадан йиллар ўтиб, у ҳаётини Мунира исмли аёл билан боғлади. Бу оилада тўрт ўғил ва бир қиз дунёга келиб, унинг умрига янги маъно ва бахт бағишлади.

Мелибой ота хизмат фаолияти давомида эришган ютуқлари ҳақида кўп гапиришни хуш кўрмайди.

— Қилган ишни санаб ўтириш шарт эмас, —

дейди у киши. — Асосийси, ҳалол хизмат қилиш.

Аммо суҳбат давомида айрим воқеалар ўз-ўзидан очилиб борарди. Шулардан бири узоқ вақт сир бўлиб қолган оғир жиноят эди.

— «Японец» лақабли бир шахс қўлга тушди, — деб эслайди у. — Суриштирув давомида унинг аввалги жиноятлари ҳам очила бошлади. Ўша йилларда Тошкент атрофида корейс миллатига мансуб машҳур табиб фаолият юритарди. Бир йигит онасини даволатиш учун шу ерга келади. Узун навбатни, одамлар оқимини кўриб, хаёлига шундай фикр келади: «Табибда катта пул бор». Шу фикр аста-секин ниятга, ният эса жиноятга айланади. У шериклар топади. Режа тузади. Охир-оқибат қотиллик содир этилади. Табиб ўлдирилади. Унинг рафиқаси оғир жароҳатланади. Жиноятчилар эса изсиз ғойиб бўлади. Бу иш узоқ вақт очилмайди. Шунинг учун вазирлик назоратига олинади. Мелибой ота «Японец»ни сўроқ қилиш жараёнида табибни айнан шу шахс ўлдирганлигини исботлайди.

У узоқ йиллар Учтепа тумани ИИБда хизмат қилиб, иззат-икром билан пенсияга чиққан. Раҳматли умр йўлдоши Мунира ая билан қарийб 55 йил бирга умр кечирган.

Ҳа, лавҳамиз қахрамонининг умри изсиз ўтмаган. Меҳрибонлик, талабчанлик ва беқиёс тажриба соҳиби сифатида у ҳали ҳам жамоат ишларида фаол, ёшларга ибрат бўлиб келмоқда. Отахоннинг ҳаётга бўлган муҳаббати шуни англатадики, унинг қалби ҳануз ёш, ҳануз серғайрат.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,**  
ўз мухбиримиз.

**Абу КЕНЖАЕВ** олган суратлар.

Тошкент шахри.

## САБАБ ВА АДОҚАТ ОҶИБИ

Мелибой отанинг болалиги бир зумда катталikka айланади. Бироқ шу қийинчиликларга қарамай у кишининг кўнглида бир орзу бор эди — ўқиш.

— Илмга қизиқардим, — дейди отахон. — Дафтарни кучоқлаб мактабга борардим. Эгнимда — қўлда тўқилган, оддий бир кўйлак — ягона кийим. Бир куни у ҳам йиртилди. Ўқитувчим буни кўриб, елкамга енгилгина қоқиб, «сен одам бўласан», деди. Балки, ўша оддий сўз бола қалбимда бир умрлик ишончни уйғотгандир.

— Жой йўқ. Ўринлар тўлган, — дейди кадрлар бўлими бошлиғи қисқа қилиб.

Мелибой ота эса иккиланмай Ички ишлар вазири қабулига киради. Ёш йигитнинг кўзларидаги ишонч ва сўзларидаги қатъият вазирни бефарқ қолдирмайди. Натижада у Милиция мактабига қабул қилинади. Ўқишни битиргач, уни Сурхондарёга — Термизга йўллашди. Шу ерда у участка нозири сифатида иш бошлади.

— Уч ярим йил ишладим, — дейди у киши. — Лекин иш оғир эди. Бир куни Тошкентдан текширув билан келган полковник сабаб вазият ўзгаради.

Айнан шу инсон сабаб у хизматни пойтахтда давом эттиради, болалар колониясига тарбиячи қилиб тайинланади. Кейин эса участка инспектори лавозимида фаолиятини давом эттиради. Йиллар ўтиб, у бой тажриба тўплаган, ҳурмат қозонган катта инспекторга айланади.

Ўттиз йил бир тизимда ишлаш. Инсонлар тақдирига дахлдор бўлган, тинчлик-осойишталик учун бағишланган умр. Ўтган йиллар ичида унинг шахсий ҳаётида ҳам синовлар кам бўлмади. Оила кўрди. Бир ўғил фарзандли бўлди. Аммо тақдир яна аямади — турмуш ўртоғи оғир хасталик сабаб бевақт оламдан ўтди. У дардини



## TENGDOSHLARIMIZ IJODIDAN

E'tiboringizga tahririyatimizga IIV Ix-tisoslashtirilgan maktab-internatining iqtidorli o'quvchilari tomonidan yuborilgan ajoyib suratlarini havola qilamiz.



«YO'L-PATRUL XODIMI»

Husniddin SALIMJONOV,

6<sup>«B»</sup>-sinf o'quvchisi



«UCHUVCHIGA MAKTUB»

Hasanxon BAHODIRXONOV,

6<sup>«D»</sup>-sinf o'quvchisi

Aziz do'stlar!

Ilovamiz sizga manzur bo'ldimi? Kelgusida «Postda Bolajon» loyihasi orqali farzandlaringiz erishayotgan yutuqlar, ularning ijodiy ishlari va qiziqarli fotosuratlarini bizga yo'llashingiz mumkin.

Barcha fikr-mulohazalarin-giz va ijodiy namunalarni [t.me/postdarsmiy](https://t.me/postdarsmiy) telegram kanalimiz-ga yuborishingizni so'raymiz.

Biz bilan bolajonlarimizning mu-vaffaqiyatlarini birgalikda baham ko'ring!



# POSTDA

# Bolajon

Tanishing, yangi bolalar sahifasi!

Siz bilan yangi – «Postda Bolajon» ilovasida uchrashib turganimizdan juda xursandmiz. Biz – Jasurbek va Adolatxon, endilikda sizning eng yaqin hamrohingiz bo'lamiz. Birgalikda kitoblar olamiga sayohat qilamiz, atrofimizdagi qiziqarli voqealarni o'rganamiz, foydali ma'lumotlar bilan tanishamiz va turfa topishmoqlarga javob izlaymiz.

Har bir uchrashuvimiz yangi bilim va quvonch olib kelishiga va'da beramiz. Siz ham biz kabi izlanuvchan va bilimga chanoqomisiz? Unda ilovamizni kuzatib boring! Oldinda sizni qiziqarli voqealar, sirli topishmoqlar va ajoyib yangiliklar kutmoqda.



## HAYDOVCHI AMAKILARGA RAHMAT!

Namangan shahridagi 34-sonli umum-ta'lim maktabining jajji o'quvchilari uchun haqiqiy «Yo'l harakati maktabi» tashkil etildi.

Bu galgi dars sinfxonada emas, balki ko'chaning eng gavjum joyida bo'lib o'tdi! Yo'l harakati xavfsizligi xodimlari bolajonlar-gayo'ldan o'tishning eng odobli va xavfsiz usulini o'rgatishdi. Endi kichikintoylarimiz yo'ldan o'tishdan oldin o'ng qo'llari-ni baland ko'tarib, «Diqqat!» ishorasini berishni va ularga yo'l bergan haydovchi amakilar-ga chiroyli qilib minnatdortlik bildirishni bilishadi.

Barakalla, bolajonlar! Doimo yo'llarda diqqatli bo'ling!

Jahongir TO'XTASINOV



## G'URURIMSAN, VATANIM!



Qayerga bormayin, qayerda bo'lmay,  
Men sening ismingni dilda saqlayman.  
Bog'ingda ochilgan har bitta gulni,  
Ko'zimga surtgayman, seni maqtayman.

Amir Temur bobom qilgan duolar,  
Ulug'bekning ilmi senga merosdir.  
Navoiy g'azali yangragan joylar,  
Faqat senga yarashgan, senga xosdir.

Bobolar qoldirgan o'g'itlar bisyor:  
«Vatanni sevmoqlik – imondan erur!»  
Shunday go'zal yurtida tug'ilganimdan,  
Qalbimda hamisha cheksiz bir g'urur.

**Amina ISMOILOVA**



## NIYAT

Hali qadamlarimiz mitti bo'lsa-da, niyatlarimiz ulkan. Bu kiyim bizga nafaqat yarashgan, balki kelajakdagi katta maqsadlarimizdan darak beradi. Biz — yurtimizning mitti posbonlarimiz, nasib qilsa, albatta, orzuimizdagi qahramonlar bo'lib yetishamiz!



## DARAXTNING SABOG'I

Bir bola daraxtga tosh otib, uning shoxlarini sindirardi. Daraxt esa unga soya va meva berardi.

Bola hayron bo'lib:

– Nega sen menga yaxshilik qil-yapsan?

Daraxt dedi:

– Yaxshilik qilish mening tabiatimga xos.

Bola uyaliy, endi hech qachon daraxtga tosh otmaydigan, shoxlarini sindirmaydigan bo'ldi.

**Azizjon O'LMASOV, 11 yosh.**  
Samarqand viloyati.



## TOPISHMOQ

Odamlarga yordam beradi,  
Tartibni saqlaydi,  
U kim?

(*тўрпоқ сақлаучи*) :iqolav/

\*\*\*



Yo'lda turadi,

Ko'zlari qizil, sariq, yashil.

Bizga tartib beradi,

Bu nima?

(*роўзатас*) :iqolav/



Rasmlarni to'g'ri ranglarda bo'yab chiqing.

## REBUS

D +  + a +  +  +  + (sh=s)

(*кўзап*) :iqolav/

(*sousoy*) :iqolav/






## HEMNING PORLOQ YULDUZI

BUYUKLAR BOLALIGI

Agar Samarqand viloyatining Payariq tumani dan o'tib qolsangiz, yo'l chetidagi ulug'vor me'moriy obidaga va u yerdagi gavjum ziyoratchilarga albatta ko'zingiz tushadi.

Bu yer - mashhur muhaddis olim Imom Buxoriy hazratlarining majmuasidir. U zotning asl ismlari Muhammad, otalarining ismi esa Ismoil bo'lgan. Buxoro shahrida tug'ilganlari uchun dunyo u zotni «Buxoriy» deb taniydi.



Imom Buxoriy bolalikdan ziyod hadisini yod bilgan Imom Buxoriy chanqoq bo'lib, atigi 10 yoshlaridan hadislarini yod olib boshlaganlar. 16 yoshida yetmish

mingdan ziyod hadisini yod bilgan Imom Buxoriy bobomizning hayoti bizga bilim olishda tirishqoq bo'lish eng buyuk fazilat ekanini o'rgatadi!

Imom al-Buxoriy bir kuni darsda nigohlaridan bilib olish mumkin edi. Uning ustoz talabalarga dars berarkan, bir hadis haqida gapirib turib: «Sufon Abu Zubayrdan, u Ibrohimdan», dedi.

Bu gapni eshitgan al-Buxoriy: «Abu Zubayr hech vaqt Ibrohimdan rivoyat qilmagan», dedi. Talabalar oldida o'z shogirdidan tanbeh eshitish, tabiiyki, ustoziga yoqmad. Uning noroziligini g'azabli edi.

**USTOZNI LOL  
QOLDIRGAN SHOGIRD**

Ustoz manbani ochib qaradi-da, lol qolib shogirdiga:

«Sen haqsan!» dedi.

Bu voqea yuz bergan vaqtda al-Buxoriy bor-yo'g'i o'n bir yoshda edi.

## YAXSHI BOLA - KIM?

Har tong quyosh chiqadi... Aтроf yorishadi. Lekin bilasizmi, aziz bolajonlar, ba'zan eng yorqin nur sizning qalbingizdan chiqadi.

Yaxshi bola - bu shunchaki odobli bola emas. U - atrofga iliqlik ulashadigan, mehr tarqatadigan kichik quyoshdir. U ota-onasining ko'ziga nur bag'ishlaydi.

Ustozining har bir so'zini diqqat bilan tinglaydi, chunki bilim - uning eng katta boyligi ekanini tushunadi. «Rahmat» va «iltimos» so'zlarini aytishni unutmaydi.

Yaxshi bola hech kimni kamsitmaydi. Aksincha, kimdir yiqilib tushsa, uni ko'taradi. Kimdir xafa bo'lsa, yoniga borib, kuldirishga harakat qiladi.



U yolg'on gapirmaydi. Chunki uning qalbi pok.

Do'stlari bilan o'ynaganda ham halol bo'ladi. Yutqazsa xafa bo'lmaydi, yutsa maqtanmaydi. Chunki u do'stlikni hamma narsadan ustun qo'yadi.

Bugun biror kishiga yordam berdingizmi? Kimningdir yuzida tabassum paydo qildingizmi? Shuni unutmang: dunyoni o'zgartirish uchun katta bo'lish shart emas. Ba'zan kichkina yurakdagi katta mehr ham yetarli.

Nilufar JABBOROVA

## KUNLARNING BIRIDA

## MAKTAB SUMKASINING SIRI



Buxoro shahridagi maktablardan birida qiziq voqea yuz berdi: Mashhura ismli qizning daftarlari, qalamdoni va ichida pishloqli patiri bo'lgan sumkasi yo'qolib qoldi.

– Matematikasiz yashasa bo'lar, lekin patirsiz qiyin! – deb xo'rsindi qizcha.

Yordamga voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha inspektor, mayor Gulnora Yusupova keldi. Uning mehribonlik bilan jilmayishi hatto eng sho'x o'quvchilarni ham tinchlantirib qo'ydi.

– Hech kim xavotir olmasin. Hozir hammasini topamiz, – dedi u.

Mayor bolalar bilan suhbatlashdi va poldagi non ushoqlariga ko'zi tushdi. Izidan yurib, maktab kutubxonasiga kirib bordi.

U yerda stol tagida birinchi sinf o'quvchisi Ravshan o'tirardi.

– Men mazza qilib ovqatlanib olmoqchi edim... Lekin adashib boshqa sumkani olib qo'yibman, – deb tan oldi u.

Sumka Mashhuraga qaytarildi, Ravshanga ichida olma va bo'g'irsog'i bor o'z sumkasi topib berildi.

– Eng muhimi – birovning narsasini olinmaslik va xatoni tan olishdan qo'rqmaslik kerak, – dedi Yusupova shirin jilmayib.

– Ammo, Mashhuraxon, bilib oling, matematikasiz yashash qiyin.

Xulosa: to'g'riso'zlik va mehribonlik xatolarni jazodan ko'ra tezroq tuzatadi.

**Yulduz MUSTAFAYEVA**

## IBRAT

## CHUMOLI VA NON USHOG'I

Bobosi:

– Ey bolajonim, bu dunyoda har bir jonzot o'z nasibasini o'zi topishga harakat qiladi. Ayniqsa, chumolilar. Ular kutilmaganda qarshilaridan chiqqan, ya'ni mehnat qilib topilmagan o'ljaga shubha bilan qaraydi. Ko'rdingmi, jonivorlar ham tekin luqmadan hazar qiladi. Ammo, ming afsuski, biz – jonzodlarning oliysi hisoblangan insonlar ba'zan tekin topilgan rizqdan o'zimizni tiya olmay qolmaymiz, – dedi nabirasining boshini silab.

**Mirzo AHAD**

Hovlida bir qator bo'lib g'imirlashayotgan chumolilar Avazbekning e'tiborini tortdi. Ular nimalarnidir izlash, topganlarini uyalariga tashish bilan ovora edi.

Shu vaqt bolakayning miyasiga bir fikr keldi. Yugurib bordi-da, dasturxonidagi ushoqlarni to'plab shoshib ketayotgan chumolilar oldiga qo'ya boshladi. Lekin chumolilar ularni bir-bir iskab, ortlariga qaytib ketishdi.

Avazbek bundan hayron bo'lib qoldi.

Kechqurun bu voqeani bobosiga aytib berdi.



Семинар

## ОРИЕНТИР НА ЦИФРОВУЮ МОДЕРНИЗАЦИЮ

**В условиях активного развития технологий и перехода государственных услуг в электронный формат повышение квалификации сотрудников в области цифровизации становится приоритетной задачей.**

В Департаменте миграции и персонализации при МВД Республики Узбекистан состоялся учебный семинар для специалистов IT-сферы территориальных управлений. Программа была сосредоточена на ряде задач: от анализа текущего состояния информационных систем ОВД до перспективных планов по их модернизации. Участники рассмотрели механизмы интеграции новых цифровых инструментов, призванных упростить процесс получения госуслуг для населения и минимизировать человеческий фактор.

Практическая часть занятий позволила разобрать кейсы,



возникающие в повседневной деятельности. Особое внимание уделено работе АИС «Паспорт-

виза». Обсуждены технологические вопросы, связанные с внедрением обновленных

алгоритмов обработки данных, технической поддержки, выработки оперативных протоколов, усиления защиты персональных данных.

– Цифровизация – это не только установка оборудования, но и постоянное обновление знаний тех, кто обеспечивает бесперебойную работу систем, – отметил начальник управления Департамента подполковник Фазлиддин Усмонов. – Полученные знания позволят сотрудникам повысить эффективность работы на местах, ускорить процесс цифровой трансформации, делая услуги ведомства еще более доступными и качественными для граждан.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.

**Фото Икром ХАСАНОВА.**

Безопасная среда

## ОБЩАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ

В рамках исполнения постановления Президента Республики Узбекистан от 5 января 2026 года в образовательных учреждениях проводятся профилактические мероприятия. Цель – раскрыть суть современных угроз, разъяснить меры по их нейтрализации, повысить правовую грамотность молодежи.



Очередная такая встреча состоялась в Чирчикском государственном педагогическом университете. Спикерами выступили первый проректор по вопросам молодежи и духовно-просветительской работе, доктор педагогических наук Самариддин Кораев, начальник УВД города Чирчика подполковник Нурбек Сафаров, магистрант Академии МВД майор Элбек Байрбеков.

В центре внимания были вопросы профилактики правонарушений, противодействия наркомании и киберпреступности. Эксперты акцентировали внимание на необходимости межведомственно-

го взаимодействия, подробно разъяснили методы защиты от интернет-мошенников и правовые последствия участия в незаконном обороте наркотиков.

Завершением встречи стала презентация творческого проекта. Участникам был продемонстрирован художественный фильм «Синов» («Испытание»), подготовленный студентами. Картина, посвященная борьбе с наркозависимостью, нашла живой отклик у аудитории за свою актуальность и правдивость.

**Соб. корр.**

*Ташкентская область.*

В Караульных войсках МВД

## СЛАЖЕННАЯ СЛУЖБА



Надежная охрана объекта держится на внутренней дисциплине и бдительности каждого бойца. В войсковой части № 7531 Караульных войск МВД Узбекистана этот принцип лежит в основе несения службы.

На формирование высоких морально-волевых качеств у военнослужащих направлена ежедневная деятельность заместителя командира батальона капитана Жавохира Бойбутаева и его коллеги – заместителя командира взвода лейтенанта Темурмалика Абдувахобова. Их работа – это живой диалог с личным составом, идеологическая закалка воинов, обеспечение здоровой духовно-нравственной атмосферы в подразделении.

Капитан Жавохир Бойбутаев – уроженец Джизакской области, офицер во втором поколении. В 2020 году окончил Университет общественной безопасности Нацгвардии. За годы службы он отточил профессиональное мастерство и убежден: в подготовке подчиненных собственным примером – главный аргумент.

Лейтенант Темурмалик Абдувахобов родом из Балыкчинского района Андижанской области – края, известного созидательными традициями и людьми крепкого закала. В 2025 году он окончил Академию Вооруженных Сил. Прибыв в часть, активно включился в службу, внедряя современные подходы к воспитанию и обучению. Использование интерактивных методов и мультимедийных технологий позволяет ему повышать эффективность освоения воинами политических и правовых знаний.

Офицеры на практике доказывают: воспитание – превращение внешней дисциплины во внутреннее убеждение воина. В этом тандеме опыт старшего товарища дополняется энергией младшего коллеги, что позволяет формировать слаженное подразделение, готовое к выполнению поставленных задач.

**Рафик ЕНИКЕЕВ.**  
**Фото Абу КЕНЖАЕВА.**

► **A special gift for the little ones**

## Dear readers!

An exciting surprise awaits you in today's edition of our newspaper! We are pleased to announce that our publication will now periodically feature «Postda Bolajon», a special section dedicated to children. In today's issue, this engaging section opens its pages to our young readers for the very first time.

There is absolutely no room for boredom on our pages! Through this supplement, we will journey together into the world of books, explore the most fascinating events happening around us, and seek answers to the most challenging riddles. Additionally, «Postda Bolajon» includes a curated selection of articles focusing on children's interests, their brightest dreams, and their daily lives.

We believe that every encounter will bring new knowledge and immense joy to our young audience.



If your children are inquisitive and eager to learn, make sure to share today's «Postda Bolajon» supplement with them!

Stay tuned – many more exciting pages are yet to come!

► **Oversight and control**

## Guardians of the «Miskin» station

The security detachment of the «Miskin» station, under the Republic of Karakalpakstan Department of transportation security, ensures the 24/7 safety of passenger and freight trains across a 172-kilometer jurisdiction. Led by lieutenant colonel Baynazar Allamjarov, the unit has processed administrative reports against 195 offenders, intercepted illegal fuel smuggling, and apprehended a wanted individual within the first quarter of this year. To maintain

order across 3 railway stations, 6 stops, and 17 crossings, the team conducts «Safe day on railways» operations and public awareness campaigns. Furthermore, protective wire fencing is being installed along the «Miskin-Nukus» section to prevent accidents. The coordinated efforts between the Ministry of internal affairs, the National guard, and railway authorities remain the cornerstone of regional stability and safety.



► **An integrated system**

## The unified chain of safety



In the Chilonzor district, school No. 179 exemplifies the successful implementation of the «Safe School» initiative, balancing academic excellence with robust security standards. Under the leadership of school director Gulnora Ubaydullayeva, 89% of last year's graduates secured university placements, while lieutenant Rukhsora Mamadazizova oversees the comprehensive safety protocols. The facility is equipped with «panic buttons», Ministry of internal affairs security personnel, and 24/7 surveillance. Furthermore, security guards have undergone specialized emergency response training, and regular seminars on countering cybercrime and drug abuse are conducted for students. This integrated approach has led to a significant reduction in truancy and juvenile delinquency, creating a protected environment for future generations.

► **Dedication to duty**

## A vigilant guardian at every step



Sergeant Shuhrat Rasulov, senior inspector of the 2nd mobile road patrol service of the Sherobod district DIA, is one of the dedicated officers with many years of experience. Our hero, who began his career in the city of Termez, has gained extensive experience serving in the DIA systems of the Termez, Muzrabot, Qiziriq and Angor districts. Today, he makes a significant contribution not only to ensuring road traffic safety but also to apprehending wanted individuals and upholding the rule of law. A keen footballer and a loving father of four, Shuhrat Rasulov is held in high esteem by his colleagues for his sense of justice and responsibility. His effective service is regularly recognised by his superiors.

Translated by Munawar RASHIDOVA, docent.

► **Community peace**

## Unity as a sign of well-being

Major Husen Yodgorov, senior preventive inspector of the Shofirkon district Department of internal affairs, is responsible for the tranquility of the «Bog'iafzal» neighborhood. His workday begins at dawn by ensuring school student safety and continues late into the night. Working within the «mahalla seven» system alongside neighborhood chairman Furqat Kudratov, women's activist Shahlo Jurayeva, assistant khokim S. Abdullayev, and youth leader S. Tukhtakulov, he addresses local issues at the grassroots level. Throughout the day, major Yodgorov mediates family conflicts, conducts preventive talks with alcohol-dependent individuals, monitors probationers, and thwarts potential crimes such as attempted theft. Notably, in cooperation with lieutenant Abror Muslidinov, he successfully located a missing person. Through his tireless efforts and collaboration with community leaders, crime



rates have decreased, ensuring a safe and peaceful environment for the residents.

# «TO'G'RILIQ YO'LINDA O'LIMDAN HAM QO'RQMAYMIZ»

**Y**aqin-yaqingacha o'tgan asr boshida Vatan ozodligi, xalqni ma'rifatli qilish, millat taraqqiysi uchun kurashgan ilg'or fikrli ziyolilar haqida gap ketganda, faqat maktab darsliklari va boshqa adabiyotlarda tilga olingan bir necha ma'rifatparvarni bilardik, xolos. Aslida ular yuzlab hammaslak, hamqadam safdoshlardan iborat butun boshli birlashma bo'lganini xayolimizga ham keltirmasdik. Bir maqsad yo'lida birlashganlar safida Hoji Muin Shukrullo o'g'li ham bor edi.

## SHOIR, NOSHIR, MAKTABDOR VA MUTARJIM

1883-yil 19-martda Samarqandda savdogar oilasida tug'ilgan Hoji Muin o'n ikki yoshida ham ota, ham onasidan ayrilgach, Ruhobod guzarining masjid imomi bo'lgan bobosi Mirsaid Sharif o'g'li tarbiyasida qoladi. Undan arab tili qoidalarini va diniy ilmlarni o'rgana boshlaydi. 1900-yili taniqli ziyolilardan biri bo'lgan Sayidahmad Vasliy bilan tanishish esa bilimlarini yanada mukammallashtirishga imkoniyat yaratdi. Vasliy unga arab tili qoidalarini o'rgatish bilan birga, she'riyatga bo'lgan muhabbatini ham kuchaytirdi.

Vasliyning ko'magida o'z davrining ma'rifatparvarlari davrasiga kirgan Hoji Muin 1901-yili eski maktabda muallimlik faoliyatini boshlaydi. Muayyan tajriba to'plagach, 1903-yili Xo'ja Nisbatdor mahallasida, 1914-yili esa o'z uyida «Tarbiyat» nomli yangi usuldagi maktab ochadi. Abduqodir Shakuriy ta'sirida maktabdorlikni boshlagan Hoji Muin hayotida Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishish mutlaqo yangi davrni boshlab beradi. Ayniqsa, Behbudiyning «Muxtasari jug'rofiyai umumiy» nomli asari unda juda katta taassurot qoldiradi. Natijada o'zi ham darsliklar, xususan, fors tilida «Rahnamoi savod», I. Rahmatullazoda bilan hamkorlikda o'zbek tilida «O'qituvchi» nomli alifbo kitoblarini yozib, chop ettiradi.

Hoji Muin mashhur ma'rifatparvar A. Shakuriyning iltimosi bilan bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha she'rlarni o'zbek tilidan forsiyga tarjima qiladi. Keyinchalik Mahmudxo'ja Behbudiy ko'magida ularni «Guldastai adabiyot» nomi bilan to'plam holida chop ettiradi. Bu to'plamga u «Xitob va go'daki beilm», «Nasihati», «Muxammas», «Ittifoq», «Shikoyati», «E'tirofi» kabi o'z she'rlarini ham kiritgan.

Hoji Muin mutarjim sifatida Abdurauf Fitratning 1911-yilda yozilgan «Hindistonda bir farangi bilan buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'on munozarasi» nomli asarini fors tilidan o'zbek tiliga o'g'irib, 1912-yili «Turkiston viloyatining gazetisi»da chop ettiradi. Keyinchalik alohida kitob holida nashr qiladi. Shuningdek, Duriyning «Aqidai islomiya» asarini tojik tiliga tarjima qilgan.

## IKKINCHI O'ZBEK PYESASI

Ijodiy faoliyatini 1900-yillarda «Nahif» (Ojiz), «Mehriy» taxalluslari ostida an'anaviy mavzularda she'rlar yozish bilan boshlagan Hoji Muinda Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pyesasi dramaturgiyaga havas uyg'otadi. Natijada uning dolzarb mavzulardagi sahna asarlari dunyo yuzini ko'ra boshlaydi. Dramaturgning «Eski maktab, yangi maktab» pyesasida eski va yangi usul maktabi ta'lim tizimidagi farq tasvirlanib, «usuli jadid» maktabi olqishlansa, «To'y», «Ko'knori», «Mazluma xotin» kabi sahna asarlarida xalq orasida urfga kirib qolgan yomon odatlar qoralanadi.

Ta'kidlash joizki, 1914-yilda Nusratullo Qudratullo o'g'li



## VATAN QAYG'USI

Farg'ona vodiysida Turkiston kelajagi uchun hayot-mamot janglari boshlangan bir vaqtda, ya'ni 1918-yil 13-avgustda «Mehnatkashlar tovushi» gazetasida «Bizga nima kerak?» maqolasi chop qilinadi. Bu maqolada nafaqat Hoji



li bilan hammualliflikda yozilgan «To'y» pyesasi Behbudiyning «Padarkush»idan keyin sahnalash-tirilgan ikkinchi o'zbek dramasi-dir. Bundan tashqari, Hoji Muin «Maorif qurbonlari», «Juvonbozlik qurbonlari», «Boy ila xizmatkor», «Qozi ila muallim» kabi pyesalar ham yozgan.

## «TARIXNI BEGONALAR YOZMASLIGI KERAK»

Millatni uyg'otish uchun, eng avvalo, uning haqqoniy tarixini yaratish zarur, deb hisoblagan Hoji Muin 1915-yilda «Oyina» jurnalida chop etilgan «Milliy tarix haqida» sarlavhali maqolasida tarix yozishni begonalarga emas, «turkistoniylar»ning o'zlariga havola qiladi. Buning uchun jiddiy g'ayrat va shijoat lozimligini, barcha ziyolilar bu ishga astoydil kirishsalar, biror natijaga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Amaliy tashabbus bilan chiqqan publitsist xalq qalbida iftixor va g'urur hissini uyg'otadigan, yuksalishga chorlaydigan tarix kitobining yaratilishini orzu qiladi.

Muinning, balki butun Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining askarlik, milliy qo'shin tuzish bo'yicha qarashlari ilgari surilgan: «Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxil urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu urushdan vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir», deb yozgan muallif askarlik masalasi negizida istiqlolni targ'ib qilganini va birlashishga chorlaganini alohida ta'kidlash lozim.

## «MILLATNI UYG'OTISH UCHUN BIRINCHI OMIL»

Rossiyadagi to'ntarishlar oqibati o'laroq, 1917-yilning may oyida mardikorlikdan ona yurtiga qaytgan Hoji Muin matbuot ishlariga sho'ng'ib ketadi. Mardikorlikka olingunga qadar, ya'ni 1913-1915-yillarda «Samarqand» gazetasi va «Oyna» jurnalida fao-

liyat yuritgan jurnalist avval Fitratning «Hurriyat» gazetasida ishlaydi, so'ngra 1918-yilning 11-iyunidan «Mehnatkashlar tovushi» gazetasini yo'lga qo'yadi.

«Mehnatkashlar o'qi», «Zarafshon», «Ovozi tojik» gazetalari, «Tayoq», «Mashrab», «Mushfiqiy» kabi hajviy jurnallarda ishlagan publitsistning qalami tobora o'tkirlashib borardi. Biroq 1929-yilning 29-sentabrda boshlab uch yil Sibirda surgunda bo'lish uni nafaqat ona yurtidan, balki sevimli mashg'ulotidan ham ayirdi.

Surgundan qaytgach, O'zbekiston davlat nashriyotining tojik bo'limida adabiy xodim, «Qizil Yulduz» gazetasi muxbiri bo'lib ishlagan Hoji Muin 1938-yil 24-yanvarda nohaq hibsga olinib, NKVD qoshidagi uchlik hukmi bilan 10 yilga qamaladi. Bu otashin jurnalist, mohir publitsistgagina emas, yotlar ko'k-siga quroldek qadalgan qalamga o'qilgan hukm edi. Natijada millatni matbuot bilan uyg'otishni maqsad qilgan qalam sohibi 1942-yilning 27-iyulida Rossiyaning Solikamsk shahridagi qamoq lagerlaridan birida olamdan o'tdi.

Nafaqat o'sha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok etgan, balki «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi hamda «Tayoq», «Mashrab» kabi hajviy jurnallarning birinchi muharriri va tashkilotchisi sifatida ham tarixda qolgan Hoji Muin 1907-1937-yillar davomida 23 xil gazeta va jurnallarda 200 tacha maqola, 400 tacha xabar hamda o'zbek va tojik tillaridagi 1500 misraga yaqin she'rlari bilan qatnashgan.

## XULOSA O'RNIDA

Biz bugun nega Hoji Muindan so'z ochdik. Chunki u tom ma'noda vatanparvar, qo'rqmas va shijoatli jurnalist edi. O'z hayotini tahlikaga qo'yib bo'lsa-da, yurt va xalq manfaatini uchun matbuot maydonida mardona kurash olib borgan shoir, dramaturg, noshir, maktabdor va mutarjim Hoji Muinning «Mehnatkashlar tovushi» gazetasining 1919-yil 23-yanvar sonidagi maqolasidan joy olgan «Bizlar hech kimga xo'shomadgo'ylik qilmaymiz va hech kimdan qo'rqmaymiz. Bizlar vijdon va nomusimizni pulg'a sotmaymiz. Bizning do'stimiz va ma'shuqimiz yolg'iz haqiqat bo'lg'onlig'i uchun haqiqat va to'g'riliqdan boshqa hech kimni rioya etmaymiz. To'g'riliq yo'lida bo'hton, hibsi va hatto, o'limgan ham qo'rqmaymiz. To'g'riliq va muqaddas maslakimiz yo'lida qurbon bo'lmoqni o'zimiz uchun bir sharaf deb bilamiz» degan bitiklar esa barcha jadid bobolarimiz yuragidagi otash so'zlar edi.

**Temir QURBON,**  
filologiya fanlari nomzodi.

## O'kinch

Doktor: «Onangiz endi yolg'iz yashay olmaydi», – deganida, sakkiz farzandning boshi birdaniga egildi. Go'yo ular bir uyda o'sgan jigarlar emas, bekatda kutib turgan begonalardak edilar.

«Unga yigirma to'rt soatlik parvarish kerak, – dedi doktor. – Agar ichingizdan birortangiz buni zimmasiga olmasa, qariyalar uyi haqida o'ylashingizga to'g'ri keladi».

Xonaga sukunat cho'kdi. Onam avvaliga kulimsirab turardi. Yuzida o'sha g'ururli onalarga xos tabassum bor edi... Go'yoki: «Men yaxshi farzandlar tarbiyalab yetishtirdim, endi navbat ularga», – deytogandek. Har birimizga birma-bir qarab chiqdi. Go'yo yillar davomida shu lahza uchun nigohlarini asrab qo'ygandek edi.

Sakkiz farzand... Sakkizta bayram tongida erta turib tayyorlagan dasturxonlari. Sakkizta maktab sumkasi. Sakkizta tug'ilgan kun. Sakkiz marta «Mening eng katta boyligim» degan odamlari.

Birinchi bo'lib katta akam gap boshladi: «Ona... bilasan, men istardim-u, lekin kredit bor, qarz bor... ahvolimiz og'ir».


Opam qo'llarini qovushtirdi: «Juma kuni lzmirga ketyapman, reja bir necha oy oldin tuzilgan».

Boshqa bir akam xo'rsindi: «Ishim o'zi qil ustida turibdi... Hozir tashlab ket-sam, tamom bo'laman».

Biri: «Ayolim ko'nmaydi», – dedi. Biri: «Uyim tor», – dedi. Biri: «Belim ko'tarmaydi», – dedi. Biri: «Rasmiy ishlarni men hal qilaman», – dedi. Yana biri: «Tez-tez xabar olib turaman», – dedi.

Shu payt onamning yuzidan ichida nimadir uzilib tushganini sezdim. Birdan emas... Asta-sekin. Haqiqat odamning yuragiga botib tushadigan o'sha achchiq lahza bor-ku... Xuddi o'sha. Ko'zlari yoshlanmasidan avval hammasini tushundi.

Bu ayol... Otam uyni tashlab ketganida, ikkita ishda ishlagan ayol edi. Ovqatni suyultirib bo'lsa ham, hammamizga yetkazgan ayol edi. O'zi bir xil kamzulni yillarcha kiyib, bizga poyabzal olib bergan



## ONA VA SAKKIZ FARZAND

ayol edi. Va doim shunday derdi: «Men qarishdan qo'rqmayman... Farzandlarim bor».

Men eng kichigiman. Kech qolgan. Hisobda yo'q. Aka-opalarimdan qolgan kiyimlarni kiyib o'sgan. Oilaviy rasmlarga: «Qani, sen ham kel», – deyishsagina kirib qolgan. Balki, eng sevimlisi emasdirman... Lekin e'tibordan chetda qolishga o'rgan-gandim.

Shunga qaramay, o'sha kuni... Onamning doktor oldida yig'lab yubormaslikka harakat qilayotganini ko'rib, ichimda nimadir chirt etib uzildi. Sekin yoniga borib, qo'lidan tutdim. Qo'llari muzdek edi. Go'yo avvalgidan ham kichrayib qolgandek.

«Ona, – dedim. – Men bilan ketasan».

Shu lahzada xonadagi sukunatning rangi o'zgar-di. Bu gal sukunatda uyat bor edi. Opam darrov gap qotdi: «Sen bir xonali studiya kvartirada yashay-san-ku!»

«Bilaman».

Akam past nazar bilan kinoya qildi: «Marketda tungi smenada ishlaysan».

«Bilaman».

digandek. Qo'limni qattiq siqdi.

«Yo'q, bolam... ha-yotingni barbod qilmay», – dedi.

Mana shu jumla... Odamning ichini vayron qiladigan jumla. Chunki bor-budini bergan farzand-laridan keyin ham... Hali ham «Yuk bo'lib qolmay-manmi?», deb o'ylardi. Egilib, onamni quchoq-ladim. «Sen mening hayo-timni barbod qilmaysan»,

qotdi, oyoqlarim og'ridi. Hisobimda ozgina pul bor edi. Yarim tunda onam uyqusirab qo'limni qidirib qoldi... Xuddi men kich-kinaligimda qilganidek.

Va o'shanda angladimki, oila qon bilan quriladi... Lekin mehr bilan oyoq-da turadi. Farzand o'sti-rasan... Unga umringni bag'ishlaysan... Baribir, qariganda bir xonada yolg'iz qolishing mumkin. Chunki ba'zi odamlar... seni berganlaring uchun emas, balki ulardan hech narsa so'ramaganingdagi-na yaxshi ko'rishadi.

Va ba'zan... eng kam sevilgan farzand, eng ko'p ega chiqqan farzand bo'lib

## Ona

*Ko'kda yulduz uchsa nogahon,  
Bitdi, derlar qaysi bir taqdir.  
Bunday g'amni ko'tarmoq oson,  
Bu ehtimol, bizlar haqdadir.*

*Ba'zi tunlar ko'kka tikib ko'z,  
Eslab deyman onamni shu on:  
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz,  
Qulab tushsa arziydi osmon.*

**Abdulla ORIPOV**



Suratlar sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

«Bir o'zing eplay olmay-san», – dedi kimdir.

Hammasiga qaradim. Odamlar mas'uliyatdan qochayotganda naqadar aqlli gapirishadi-ya... O'sha kuni bir narsani angladim.

«Oson bo'ladi demayap-man», – dedim. – Yolg'iz qolmaydi deyaipman».

Onam o'shanda yig'lab yubordi. Ohista, ovoz chiqarmay... Keksa odamlar hech kimga yuk bo'lmaslik uchun yig'lay-

– dedim. – Sen menga hayot bergansan».

Hech kim ko'zimga qaray olmadi. Keyin hamma-lari «yumshab» qolishdi:

«Xarajatlarni bo'lisha-miz...»

«Navbat bilan qaray-miz...»

«Enaga topamiz...»

Lekin kech bo'lgandi. Kimdir yukni yelkasiga olganidan keyin hamma fidoyi bo'lib qoladi. O'sha kecha shifoxonadagi plas-tik stulda uxladim. Bo'ynim

chiqadi. Buni hech kim ba-land ovozda aytishni ista-maydi. Lekin haqiqat shu. Oxir-oqibat yoningda qol-gan... Eng muvaffaqiyatli-emas. Eng ko'p gapiradi-gani emas. Onalar kunida eng chiroyli tabrik yozgani ham emas. Og'ir sukunat cho'kkanida... Seni yolg'iz qoldirishga yuragi chi-damagan insondir.

**Sahifa internet materiallari asosida tayyorlandi.**

Qilmish-qidirmish

... 100 million pul zarur bo'lib qolgandi, shu yigit bankdan tezda kredit olib beraman, deb ishontirdi...



# MASHMASHASI

Bugun ko'pchilik oilaviy ehtiyojlar, to'y marosimlar, avtomashina sotib olish, qurilish va ta'mirlash ishlari uchun bankdan kredit olib, muddatli to'lov asosida to'lab yurishga o'rgandi. Ammo kredit olishning ham o'z tartib-tamoyili borki, uni bilmaganlar chuv tushib qolishi amaliyotda ko'p uchramoqda.

Joriy yilning 26-fevral kuni farg'onalik fuqarolaridan biri «102» raqamiga murojaat qilib, noma'lum shaxs tomonidan nomiga 105 million 780 ming so'm kredit rasmiylashtirib olingani haqida ma'lum qildi va aybdorni topishda amaliy yordam so'radi.

Holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi

qo'zg'atilib, o'rganish ishlariga kirishildi. Viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash boshqarmasi xodimlari tomonidan ko'rilgan tezkor tadbirlar natijasida yuqoridagi jinoyatni sodir qilgan shaxs aniqlanib, qo'lga olindi.

Quva tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro kompyuter texnologiyalarini yaxshi

bilgani bois boshqa shaxslarga onlayn kredit olishda ko'maklashib kelgan. Keyin nafs vasvasasiga uchib, qing'ir ishga qo'l uradi. Undan ko'mak so'rab keluvchilarning soddaligidan g'araz maqsadda foydalanib, 10 dan ortiq fuqarolarning nomiga 1 milliard so'mdan ziyod kredit oladi. Olingan pullarni esa o'z ehtiyojlariga sarflab, tarallabedod qilib yuraveradi.

– 100 million pul zarur bo'lib qolgandi, shu yigit bankdan tezda kredit olib beraman, deb ishontirdi, – deydi jabrlanuvchilardan biri. – Barcha hujjatlarimni

unga berdim. Keyin haqiqatan ham, aytilgan pulni olib berdi. Biroq oradan vaqt o'tib, to'lovga borganimda, aslida mening nomimga yanada ko'proq kredit olinganini bilib qoldim. Bu yigit hujjatlarimdan foydalanib, mening nomimga yana boshqa kredit olgan va shaxsiy ehtiyojlari uchun ishlatib yurgan ekan.

«Hozirda mazkur holat yuzasidan tergov harakatlari olib borilmoqda», deyiladi viloyat IIB rasmiy axborotida.

– Qanchalik targ'ibot ishlarini olib bormaylik, ayrim hamyurtlarimizda haligacha

kibermadaniyat va huquqiy savodxonlik yetarli darajada emas, – deydi viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash boshqarmasi katta inspektori, podpolkovnik Abdurahim Eminov. – Bu esa kiberjinoyatchilarga juda qo'l kelib, sodda yurtdoshlarimni chuv tushirishmoqda. Shu o'rinda yurtdoshlarimizga o'zining ishtirokisiz yoki xabarisiz kredit bitimini rasmiylashtirish bilan bog'liq firibgarliklarning oldini olish maqsadida «Kreditga taqiq» xizmatidan foydalanishni maslahat beraman.

Yana bir muhim eslatma: o'z nomingizga kredit rasmiylashtirishda hech qachon banklarda ishlaymaydigan boshqa shaxslar yordamidan foydalanmang. Shaxsiy ma'lumotlaringizni doim ehtiyot qiling. Axborot texnologiyalariga oid bilimlaringizni mustahkamlab boring. Shunda xotirjam yashaysiz.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
**o'z muxbirimiz**  
*Farg'ona viloyati.*

Mulohaza

# ONLAYN QIMOR –

## ZAMONAVIY TUZOQ

Internet orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarning ichida yaxshi, jamiyatga foyda keltiradiganlari bilan bir qatorda insonlarga ham moddiy, ham ma'naviy zarar yetkazadiganlari ham kam emas. Bu kabi jamiyatimiz uchun xatarli bo'lgan illatlardan ogoh bo'lish, himoyalash hammamiz uchun birdek muhim.

Milliy qadriyatlarimizga butunlay zid bo'lgan qimor o'yini bugungi kunda internet tarmoqlarida keng yoyilib, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Onlayn qimor o'yinlari, xususan, futbol va aralash jang san'atlari (MMA) kabi sport turlari bo'yicha juda mashhur bo'lmoqda.

O'tgan yilda bukmekerlik xizmatlarini reklama qilgan 4 nafar vaynerning sudga berilishi esa reklama orqali yoshlarni jalb qilish holatlari davom etayotganini ko'rsatadi. Shuni qayd etish lozimki, hozirda ba'zi mashhur sportchilar, bloggerlar va sport xabarlarini yorituvchi veb-saytlar qimor



o'yinlarini faol reklama qilishmoqda. Afsuski, bu harakatlarning salbiy natijasi jamiyatimizda o'z aksini topmoqda.

Boshqa tomondan, qimorbozlik oila byudjetiga jiddiy zarba beradi. «Falonchining farzandi falon million so'm qimorda yutqazib, mashinasini sotibdi, uyini sotibdi» degan gaplar vaqti-vaqti bilan qulog'imizga chalinib turadi. Yoki aksincha, yoshlar orasida «Falonchi oka totalizatorga pul tikib, katta pul yutibdi. Yangi mashinasini ham shu

pulga olgan» mazmunidagi xabarlar suhbatlarda asosiy mavzuga aylanadi. Bunday gap-so'zlar ham o'z o'rnida eng kuchli reklama vazifasini o'taydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19 apreldagi PF-68-sonli Farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan mamlakatimizda Internet butunjahon axborot tarmog'ida tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishni tartibga solish

ishlari boshlandi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ma'lumotlariga ko'ra, fuqarolarning qimor o'yinlariga bo'lgan doimiy qiziqishi yiliga 350 milliondan 1 milliard AQSH dollari-gacha bo'lgan valyuta mablag'larining xorijga chiqib ketishiga olib kelmoqda. «Nega bunday faoliyatlarni butunlay taqiqlab qo'ya qolmaymiz?» degan savol tug'ilishi tabiiy. Sababi fuqarolarimiz orasida bu kabi o'yinlarga yaxshigina talab borligi bilan izohlanadi.

Agar biz bu illatdan butunlay qutulmoqchi bo'lsak, avvalo talab o'chog'ini o'chirishimiz lozim. Bu esa aholi o'rtasida qimorga qarshi ilmiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, mazkur illatning oqibatlaridan ogoh bo'lganlarning boshqalarni ham xabardor qilishi va qaytarishi orqali amalga oshadi.

Agar bu harakatlarimiz samara bersa, onlayn qimor tufayli kelib chiqadigan turli jinoyatlar, oilaviy byudjetga zarar va o'z joniga qasd qilish kabi xunuk holatlar kamayadi, hatto butunlay yo'qoladi. Bizdan talab etiladigan yagona ish birgalashib, bu zararli odatga qarshi kurashishdan iborat.

**Mirabbos MIRTOHIROV,**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi.**

Prezident tashrifidan so'ng

# «BOG'IMAYDON» DA YANGI DAVR NAFASI



**M**irzo Ulug'bek tumanidagi «Bog'imaydon» mahallasi bugun nafaqat poytaxt, balki butun respublikaning namunali hududlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining ushbu mahallaga tashrifi davomida mazkur maskanda amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini alohida e'tirof etildi.

1987-yilda tashkil etilgan mahalladagi 41 ta ko'p qavatli uyda 1 990 ta xonadon mavjud bo'lib, ularda 5300 nafardan ortiq aholi ahil-inoq yashab kelmoqda. Aholining mazmunli hordiq chiqarishi va sog'lom turmush tarzi ta'minlanishi uchun hududda 20 ta bolalar, 11 ta workout, 3 ta mini-futbol maydonchasi va zamonaviy tennis korti barpo etilgan. Shuningdek, ikkita maktabgacha ta'lim tashkiloti jajji bolajonlarni o'z bag'riga olgan.

– Davlatimiz rahbari mahallamizda yaratilgan bog'ning betakrorligini, bu yerdagi muhit butun respublika bo'ylab joriy etilishi lozim bo'lgan andaza ekanligini ta'kidladi, – deydi mahalla raisi Nuriddin Ochilov. – Bu biz uchun faxr va o'z navbatida katta mas'uliyat. Bu tajribani butun mamlakatga yoyish kerakligini, ayniqsa, ko'p qavatli uylarning fasad qismiga ishlangan devoriy tasviriy san'at namunalarini hududga zamonaviy ruh bag'ishlaganini ham alohida e'tirof etdi.

Mahallaning «yashil» toifada qolishida yettilik hamda profilaktika inspektorlari – kapitan Joldas Mo'minov va leytenant Rustam Do'smatovning hamkorlikdagi faoliyati alohida o'rin tutadi. Tuman IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi esa bu boradagi sa'y-harakatlarning asosiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda. Xusu-

san, hududdagi ko'p qavatli uylarning har biriga 2 tadan «tashvish tugmalari» o'rnatilgan. Biror bir favqulodda voqea yuz berganida uning tugmasi bosilsa, bu xabar shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash xizmati monitoring markaziga tushadi va tez fursatlarda chora ko'riladi. Mahalla bog'ining markaziga o'rnatilgan kuzatuv kamerasi 150 metr masofani yoritish va 100 metrli kengaytirilgan tungi ko'rish imkoniyatiga ega. Bu hududni tun-u kun to'liq nazorat qilish imkonini beradi.

– Oxirgi yillarda mahallamiz misli ko'rilmagan darajada obod bo'ldi, – deydi Ozoda Yalg'ashova. – Ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan sharoitlar yaratildi. Bu ko'chalarning tekisligi yoki qorong'ida chiroqlarning charog'on bo'lishi barobarida, xavfsizligimiz va hordiq chiqarish uchun yaratilgan ko'rkam bog'da ham yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Mahallada barpo etilgan bog', har bir o'zgarish va o'rnatilgan zamonaviy texnologiyalar asosidagi uskunalarining zamirida xalqimizning roziligi hamda ertangi kunga bo'lgan mustahkam ishonchi mujassam. Bunyodkorlik nafaqat ko'chalar ko'rkida, balki odamlar dilidagi xotirjamlik va yuzidagi tabassumda ham o'z aksini topmoqda. Bir so'z bilan aytganda, «Bog'imaydon» tajribasi bugungi yangilanayotgan mamlakatimiz mahallalarining eng yorqin va namunali qiyofasidir.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Ikrom HASANOV olgan suratlar.

Mutaxassis maslahati

## HAYOTINGIZNI O'ZGARTIRMOQCHISIZ – FIKRLARINGIZNI O'ZGARTIRING

Pozitiv fikrlash – bu hayotdagi voqealarga ijobiy nuqtayi nazar bilan qarash, muammolarni imkoniyat sifatida qabul qilish va har qanday vaziyatda yaxshilikni ko'ra olish qobiliyatidir. Bunday yondashuv insonning nafaqat kayfiyatiga, balki salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy fikrlovchi insonlarda stress darajasi pastroq bo'lib, ish faoliyatida yuqori natijalarga erishish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Og'ir kun tartibi, mashaqqatli kasb vakillarida tabiiyki pozitiv fikrlash ehtiyoji yuqori bo'ladi.

### Pozitiv fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

**Yozib chiqish:** kun davomida bo'lgan ijobiy voqealarni yozib qo'ying. Bu faoliyat sizni kunning oxirida o'sha ijobiy tajribalarga qaytib, ularning sizga qanday ta'sir ko'rsatganini eslashga yordam beradi.

**Minnatdorlik bildirish:** har kuni kamida bir nechta ijobiy narsalar uchun shukronalik bildiring. Bu sizning fokusingizni ijobiy tomonga o'tkazishga yordam beradi.

**Ozgina yumor:** kichik yumorni hayotga kiritib, har qanday vaziyatni yengil qabul qilishga harakat qiling. Bu insonning ijobiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirishga yordam beradi.

**Tasavvur qilish:** kelajak qanday bo'lishini tasavvur qiling va bu maqsadlarga erishish uchun ijobiy o'y-ho'latlarni fikrlang.

### Pozitiv fikrlashni quyidagi «Yaxshiyamki» o'yini orqali sinovdan o'tkazish mumkin.

Bunda shu so'z bilan boshlanadigan besh-ta gap tuzishingiz kerak bo'ladi.

**Misol uchun:**

- Yaxshiyamki, ishsiz emasman.
- Yaxshiyamki, do'stlarim ko'p.
- Yaxshiyamki, ota-onam o'qishimga ruxsat berishgan.

- Yaxshiyamki, yaxshilar davrasidaman.
- Yaxshiyamki, shunday oilam bor.

O'zingizga bir daqiqa vaqt ajrating, (bir daqiqadan keyin yozganlaringizni diqqat bilan o'qing)

«Yaxshiyamki» o'yini juda sodda ko'rinsa ham, psixologik va tarbiyaviy jihatdan foydali mashqlardan biridir. Uning asosiy afzalliklari quyidagilar:

- pozitiv fikrlashni shakllantiradi;
- stress va salbiy fikrlarni kamaytiradi;
- nutq va tafakkurni rivojlantiradi;
- o'ziga ishonchni oshiradi;
- hayotga minnatdorlik hissini uyg'otadi;
- tez fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

«Pozitiv fikrlashning 5 qoidasi»  
kitobidan.

# XODIMLAR IMIJINI OSHIRISHDA

## jamoatchilik fikri muhim

(Davomi.  
Boshlanishi 1-betda.)

Bir necha asrlar davomida shakllangan ko'plab tavsiyalardan, zamonaviy ichki ishlar organi xodimi imijini o'rganishda asos qilib olingan talablarga asosan bilimlilik, axloqiylik, insonparvarlik, burch hissi, adolatparvarlik, xolislik va boshqa sifatlar shu siraga kiradi.

Fransuz psixologi va sotsiolog A. Lebon ommaning ishonchini qozonishda shaxsiy jozibaga, ya'ni maftunkorlikka ustuvorlik bergan bo'lsa, nemis sotsiologi M. Veber xarizmaga, ya'ni o'ziga torta olish qobiliyati, ta'sirchan rahbarlikka ahamiyat qaratgan.

Ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ichki ishlar organlari xodimlari imijining tarkibiy qismlari sifatida: tashqi ko'rinish; huquqiy ong; shaxsiy sifatlar; kirishimlilik belgilangan.

Ushbu sifatlarni jamoatchilik e'tiboriga yetkazishda OAV muhim rol o'ynaydi. Umuuman, uning fikrlash darajasiga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, OAV ichki ishlar organlari xodimlari imijini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

### TAHDID SOLUVCHI «SOYA»

Ijtimoiy tarmoqlarda xodimlarning xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilish, haqoratlash, ularning xatti-harakatlarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish kabilarni kuzatish mumkin. Ayrim «bloggerlar» faoliyati esa osoyishtalik posbonlarini obro'sizlantirish, noxolis axborotlarni bo'rttirib ko'rsatish, alaloqibat, ichki ishlar organlariga nisbatan salbiy fikrlarni shakllantirish va tizimda halol ishlayotgan minglab xodimlar mehnatini puchga chiqarish yo'lidagi urinishlardan boshqa narsa emas.

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatishda ikki holatga guvoh bo'lindi. Birinchisi, fuqaro PPX xodimining qonuniy talabiga bo'ysunmay, u bilan tortishayotgan, xodimning formasidan tortib, qo'pol munosabatda bo'lib, haqoratli so'zlarni ishlatayotgan holat. Ikkinchisi, YPX inspektori haydovchini mensimay, «bor bilganingni qil, qo'lingdan hech narsa kelmaydi», deya qo'pollik qilayotgan holat...

Shuni unutmaslik kerakki, ziddiyatli holatlarda xodimlarga alohida javobgarlik yuklanadi, undan fuqarolar bilan muloqotda benihoya xushmuomalalik va boadablik talab

qilinadi. Munozarali, janjalli munosabatlarni hal qilish vaqtida xodim buzilgan huquq-tartibotni tiklash va bunda atrofdaqilarning qo'llab-quvvatlashiga erishishi lozim.

Darhaqiqat, fuqarolar bilan bo'ladigan muloqotda xodim odob-axloq qoidalaridan chetga chiqishi mumkin emas. Har bir

chisi» deb bilishini ma'lum qilgan. Lekin 45 foizi xodimlarning qo'pol va salbiy munosabatda bo'lishini, 41,3 foizi ularning qonunlarni yaxshi bilmasligini hamda 34,3 foizi ichki ishlar organlariga chaqirtirilganlarida uzoq kuttirish holatlari mavjudligini ta'kidlashgan. Bu esa xodimlar bilan muomala madani-

Umuman olganda, respondentlar fikri ichki ishlar organlari faoliyatini aholi bilan muloqot, ochiqlik va xizmat madaniyatiga yo'naltirilgan islohotlar orqali mustahkamlash, kasbiy va axloqiy standartlarni kuchaytirish, shuningdek, ijobiy faoliyatni tizimli ravishda jamoatchilikka yetkazish zarurligini ko'rsatadi.

### Tadqiqot natijalariga ko'ra:

– fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish, ularni ko'rib chiqishda shaffoflik va tezkorlikni ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatida aholi uchun qulay elektron xizmatlar turlari qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish;

– xodimlarning halol xizmati, fidokorligi, qahramonlik namunasi hamda fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish bilan bog'liq ijobiy tajribalarini aks ettiruvchi media va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan kontentlar hajmi va qamrovini tizimli ravishda ko'paytirish;

– ichki ishlar organlari faqat tekshiruvchi yoki jazolovchi tuzilma emas, balki fuqarolarga huquqiy, ijtimoiy va profilaktik yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatuvchi organ ekanligi


to'g'risidagi fikrni jamoatchilik ongida mustahkam shakllantirish;

– rahbar-xodim munosabatlari da adolat, ochiqlik va ishonch tamoyillarini ta'minlash maqsadida rahbar kadrlar uchun boshqaruv madaniyatini, stress-meneyjment va inson bilan ishlash ko'nikmalariga qaratilgan maxsus o'quv-mashg'ulotlari hamda psixologik treninglar o'tkazish;

– tizim faoliyatida nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ularning profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda jamoatchilik bilan ishlash yo'nalishlaridagi salohiyatidan samarali foydalanish.

Nafsilamrini aytganda, soha vakillari el orasida obro' qozonishlari, imijini oshirish uchun, avvalambor, zimmalaridagi vazifalarni sidqidildan bajarishlari lozim. Har bir xodim fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo'lishi, kasbiy va huquqiy bilimlarini muttasil oshirish ustida tinmay izlanishi zarur. Zero, ana shunda muayyan maqsad va muddaolarga erishiladi.

**Yarash OLLAMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Kriminologiya tadqiqot instituti  
yetakchi ilmiy xodimi,  
dotsent.  
**Azizjon FAYZIYEV,**  
podpolkovnik.



xodim bilimli, kasbiy malakasi yuksak, madaniyatli, tashkilotchi, jonkuyar, halol, el-yurtiga va qasamyodiga sodiq bo'lishi kerak.

Taassufki, guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ayrim xodimlarimiz yurish-turishi, kiyinishi, o'zini tutishi hamda salbiy axloqi bilan xizmat intizomini qo'pol ravishda buzayotganligini tizim imijini oshirishga tahdid soluvchi «soya» deyishimiz mumkin.

### IMIY JAMOATCHILIK NIGOHIDA

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan aholining zamonaviy ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatiga oid qarashlari, xalq posbonlari haqidagi fikrlarini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi.

Unda ishtirok etgan 77015 nafar respondentning 31 foizini maktab, kollej va litsey o'quvchilari hamda 55 foizini mahalliy aholi (o'qituvchilar, talabalar, mahalla yettiligi, yuristlar, soliq xodimlari, tibbiyot xodimlari, jurnalistlar, nuroniylar, sud xodimlari) hamda voyaga yetmaganlar tashkil etdi.

Aholining ichki ishlar organlari faoliyati bo'yicha olingan ma'lumotlarni qayta ishlash natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

So'rovnoma ishtirokchilarining 71,9 foizi xodimlarni «xalq himoya-

yatini yanada jadallashtirishni ko'rsatadi.

Ishtirokchilarning 72,9 foizi mahallada o'zini xavfsiz his qilishini, 60,6 foiz xodimlar o'z vazifasini to'liq bajarib xavfsizlikni ta'minlayotganligini bildirishgan;

61,3 foizi ichki ishlar organlari obro'sini yanada ko'tarishda aholi bilan ochiq muloqotlar, sayyor qabullar sonini ko'paytirish kerakligini, 23,4 foizi kasbiy va jismoniy tayyorgarlikni oshirish, xodimlarning tashqi ko'rinishi tartibli bo'lishi kerakligini, 17,8 foizi OAV orqali xodimlarning ijobiy harakatlarini aks ettiruvchi kontentlarni ko'paytirish lozimligini ta'kidlashgan.

So'rov natijalari aholi ongida ichki ishlar organlari umumiy xavfsizlikni ta'minlovchi institut sifatida qabul qilinayotganligini, biroq xizmat ko'rsatish sifati va ochiqlik masalalarida ayrim muammolar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Respondentlarning katta qismi ichki ishlar organlari xodimlarini «xalq himoyachisi» sifatida baholashi ijobiy ijtimoiy kapital mavjudligini anglatganda, ayrim xodimlarning qo'pol munosabati, fuqarolarni uzoq kuttirib qo'yish yoki qonunlarni yetarli darajada bilmaslikka oid baholar ichki ishlar organlari faoliyatida ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengaytirish zarurligini anglatadi.

Sportni sev, sport bilan yasha!

## G'ALABA – MEHNAT VA SABR MEVASI

**I**chki ishlar organlari tizimida xizmat qilish yuksak mas'uliyat va metin intizomni talab etadi. Namangan viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbarlik otryadi xodimi, katta serjant Ikromjon Adashev nafaqat o'z xizmat vazifasiga sodiqligi, balki sport olamidagi yuksak natijalari bilan ham el nazariga tushgan.

Qo'l jangi va universal jang sirlarini mukammal o'rgangan Ikromjon bugun xalqaro toifadagi sport ustasi darajasiga ko'tarildi. 2020-yildan buyon milliy terma

jamoada yurtimiz sharafiga himoya qilib kelmoqda.

– Men uchun sport – hayot maktabi. Ringdagi g'alaba mashq zalidagi mehnat va sabrning mevasidir. Har



gal xalqaro musobaqalarda O'zbekiston bayrog'i baland ko'tarilganda, zimmamdagi va Vatanim oldidagi mas'uliyatni yanada chuqurroq his qilaman, – deydi lavhamiz qahramoni.

**Ikromjon Adashevning 3 karra Markaziy Osiyo va 2 karra jahon chempioni bo'lishida murabbiysi, IIV «Dinamo» JTSJ viloyat kengashi raisi o'rinbosari, podpolkovnik Z. Umrzakovning hissasi juda katta. Ustozi haqida gapirganda, sportchi alohida ehtirom bilan to'xtaladi:**

– Erishgan har bir muvaffaqiyatimda ustozimning beqiyos xizmatlari bor. Gruzija, Turkiya va Qirg'iz Res-

publikasi kabi mamlakatlarda kechgan murakkab janglarda ularning taktik ko'rsatmalari va ruhiy daldasi menga kuch bag'ishladi. U nafaqat sport sirlarini, balki haqiqiy ofitser bo'lish, yurti fidoyilarcha sevisht fazilatlarini ham singdirib kelmoqda.

Bugun Ikromjon nafaqat ringda raqiblarini mag'lub etmoqda, balki Ichki ishlar organlari safida el osoyishtaligini saqlashdek sharaflil vazifani ham a'lo darajada bajarib kelmoqda. Shunday mard o'g'lonlarimiz bor ekan, xalqimiz tinchligi mustahkam, yurtimizning sportdagi dovruqi esa hamisha baland bo'laveradi.

**Jahongir TO'XTASINOV,**  
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Salomatlik

## BAHOR QUYOSHI:

## SHIFO MANBAYIMI YOKI YASHIRIN XAVF?

**B**ahorda quyosh ko'proq nur socha boshlaydi va insonlarga yangi kuch, yaxshi kayfiyat, ilhom bag'ishlaydi. Oftob nuri inson hayoti uchun zarur tabiiy omillardan biri bo'lib, tanadagi muhim biologik jarayonlarni rag'batlantiradi va fiziologik, psixologik holatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, uning ta'sirida terida suyak to'qimasini mustahkamlash, immun tizimini qo'llab-quvvatlash va organizmning umumiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan D vitamini sintez bo'ladi. Shu bois

bahorda ko'proq toza havoda yurish inson salomatligi uchun juda foydali hisoblanadi.



**Xalqimizda: «Bahorning oftobida kelingni ishlat, kuzning oftobida qizingni», degan gap bor. Bu degani, qizingni avaylab, kelingga nayza ur degani emas, balki kuzning quyoshi shifoli, bahorniki zararli ekanini go'zal uslubda, ta'bir joiz bo'lsa, «qayno-nachasiga» uqtirishdir. Chunki oddiygina qilib, kuzning quyoshi foydali, deb qo'yilsa, e'tiborni tortmaydi, yarim chin, yarim hazil bilan aytganda esa, esda qoladi.**

Shuningdek, bahor quyoshi ta'sirida serotonin gormoni ishlab chiqarilishi oshadi, bu esa stress darajasini pasaytirish va ruhiy holatni yaxshilashga xizmat qiladi. Quyosh nuri yetishmasligi esa mavsumiy depressiya holatlariga olib kelishi mumkin.

Lekin ushbu nurlarning ortiqchasi salomatlik uchun xavf tug'dirishi mumkin. Oqibatda terida kuyish, dog' tushishi holatlari va ba'zan teri kasalliklari yuzaga kelishi ehtimoli bor. Shuningdek, u terida kollagen va elastin deb ataladigan oqsillar parchalanishiga va ajinlar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bahor faslida quyosh nurlaridan me'yorida foydalanish tavsiya etiladi.

Mutaxassislar kunning eng issiq paytlarida (asosan, soat 10:00 dan 16:00 gacha) to'g'ridan-to'g'ri quyosh ostida uzoq vaqt qolmaslikni, himoyalovchi kremlardan foydalanishni va bosh kiyim kiyishni

tavsiya etadilar. Shuningdek, bahorda teri qurishi kuchayadi. Shu bois bu pallada ko'p miqdorda suv ichish, namlovchi vositalardan foydalanish ham terini namlab, sog'lom saqlaydi va uni quyoshda kuyishdan himoya qiladi. Mazkur chora-tadbirlar salbiy ta'sirning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bahor quyoshi inson organizmi uchun muhim va foydali tabiiy omil hisoblanadi. U immun tizimini mustahkamlash, ruhiy holatni yaxshilash va umumiy sog'liqni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq uning ma'lum ma'noda zarar yetkaza olishini inobatga olgan holda, quyosh nurlaridan oqilona va me'yorida foydalanish zarur. Shundagina sog'lom va faol hayot tarzini ta'minlashga erishish mumkin.

**Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi shifokori, kapitan Nilufar INOYATOVA tavsiyalari asosida Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

Yurtimiz bo'ylab

# Soyasi salqin sada

Andijon tumanidagi «Do'ngqishloq» mahallasidan sayyohlar qadami arimay qoldi. Bunga ushbu manzildagi sada daraxti sabab bo'lmoqda. Bundan 35 yil avval ekilgan nihol bugungi kunga kelib, 2,90 metr aylanaga ega bo'ldi. Shoxlarining uzunligi naq 27 metrga yetadi. Bo'yi esa 20 metrdan baland. Uning ostida bir paytning o'zida salkam 50 nafar odam bemalol salqinlab o'tirishi mumkin.

– Bu kabi ulkan daraxtlar na faqat O'zbekistonda, balki xorijda ham kamdan-kam uchraydigan holat ekan, – deydi shu mahallada yashovchi Zaynobiddin Saidmurodov. – Shu bois keyingi paytlarda sadani ko'rgani keladigan sayyohlar soni ortib bormoqda. **So'nggi kunlarda Yaponiya, Shveysariya, Hindiston, Rossiya, Yangi Zelandiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistondan mehmonlar kelishdi.** U haqdagi ma'lumotlar barchani birdek qiziqitirmoqda.

Emanlar oilasiga mansub ushbu daraxt sershoxligi va sersoyaligi bilan ahamiyatlidir. Shu bois yomg'ir yoqqan paytlarda ham, uning osti nam bo'lmaydi.

– Bu daraxt qat'iy nazoratimizga olingan, – deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

iqlim o'zgarishi vazirligi Andijon viloyati boshqarmasi mas'ul xodimi Lochinbek Isomiddinov. – Vaqti-vaqti bilan uning shoxlarini oziqlantirish, turli kasalliklardan himoya qilish, agrotexnik tadbirlarni tashkil etish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi kunda havo harorati keskin ko'tarilib ketmoqda. Ana shunday paytda sada daraxti ostida tin olish tanangizni tetiklashtiradi. Ayniqsa, uning ostidan oqib o'tuvchi ariqdagi suv barcha charchoqlaringizni aritadi.

– Bu daraxt haqida o'tgan yili ijtimoiy tarmoq orqali o'qigan edim – deydi Qirg'iz Respublikasi

ning Jalolobod viloyati Suzoq tumanidan kelgan Ulug'bek Abdurayimov. – Bugun uni ko'rib ko'zim quvnayapti. Ona tabiatga bo'lgan munosabat o'zligimizga, insoniyeligimizga bo'lgan munosabat, deb bilaman. Biz farzandlarimizga musaffo hayotni meros qoldirish uchun uni o'z qo'limiz bilan yaratishimiz kerak. Sada daraxti ostida shu fikr xayolimga keldi. Qishlog'imga borgach, men ham mahallamga shu daraxt ko'chatini ekishga qaror qildim.

**Saminjon HUSANZODA,**  
o'z muxbirimiz.

*Andijon viloyati.*



Iboralar izohi

Bu ibora «Astoydil emas, istar-istamas, shunchaki, yuzaki», shuningdek, «Nochor ahvolda, kambag'alchilik bilan» ma'nolarini bildiradi.

Uning yuzaga kelishi xalqimizning kiyinish madaniyati bilan bog'liq. Yengil kalta kiyim kiyish urf bo'lmagan, ayniqsa, o'zbek ayollari kiyimlarining yangi ancha uzun bo'lgan vaqtlarda yengil yumushlar kiyim yengini shimarmagan holda, qo'l uchida ham bajarilgan. Bunday holatsiz ham qo'l uchida ish qilish mumkin. Masalan, «Usta Oqilbekka ham bir-ikki yumush buyurdi. Oqilbek moy tegmasin, degan maqsadda qo'l uchida bajarsa ham tanbeh bermadi» jumlasida qo'l uchida birikmasi ko'chma ma'noda qo'llanmagan, haqiqatan, qo'lning uchida qilingan ish-harakatni bildirmoqda.

## QO'L UCHIDA

Ammo hozirgi kunda faqat qo'lning uch qismi bilan qilinadigan jismoniy mehnatni emas, har qanday xatti-harakatni «nomiga, istab-istamay, shunchaki, yuzaki» bajarish holatiga nisbatan qo'l uchida iborasi qo'llanadi. Masalan: «O'zbeklarda salom-alikdan keyin «hormanglar», deb qo'yish fazilati borligini unutgan Kesakpolvon u bilan qo'l uchida, mensimgan tarzda ko'rishib: – Ha, ishlar ketyaptimi? – deb so'radi». (Tohir Malik, «Shaytanat».)

Qo'l uchida birikmasi iboralashib bo'lgandan ma'lum vaqt o'tgach, yana bir ko'chma ma'no paydo bo'lgan. Quyidagi jumlada qo'l uchida iborasi ana shunday ko'chma ma'noda – «nochor ahvolda, kambag'alchilik bilan» ifodasida kelgan: Qo'l uchida amal-taqal kun ko'rayotgan xonadon uchun sarf-xarajati kattagina bir to'ydan ham oshib ketguvchi «qiz majlisi»ni o'tkazish oson emas... (Abduqayum Yo'ldoshev, «To'y».)

Shunday bo'lsa-da, yengil shimarib va qo'l uchida iboralarda xalqimizning avvalgi turmush tarzi bilan bog'liq semantika saqlanib qolgan.

**Shuhrat RO'ZIYEV**  
tayyorladi.

Umida SAPAROVA

Bahor ilhomi



## Qizg'aldoqzor ufq tomon ko'chdi

*Qizg'aldoqzor ufq tomon ko'chdi,  
Qirlarning eng yuksak yerida.  
Jilg'alarining jivirlaridan  
Ming yillik xarsanglar eridi.*

*Bodroq ochar yulduzlar shomda,  
Oq yog'duga to'lar etaklar.  
Zambaraklar otilsa ko'kda  
Qo'rqmaysizmi tunda, chechaklar?*

*Yana ranglar keldi muzaffar,  
Qurum bosgan islar quvildi.  
Tars yorildi ko'kning gumbazi  
Zaminning g'ubori yuvildi.*

*Jangga kirdi o'ktam bulutlar,  
Ot soldilar, qamchi bosdilar.  
Sharros quygan yomg'ir so'ngida  
Kamalakni dorga osdilar.*

*Chamanlarga tutashdi shafaq,  
Alvon rangli lolalar qondir.  
Ko'kning yozgan ishq nomasini  
Zamin o'qib qizardi, yondi...*

*Hatto kapalaklar quvondi!*

Izboskandagi uchrashuvdan keyin o'tirish bo'ldi. Andijonga qaytib yurmasdan o'sha yerda qoladigan bo'ldik. Mezbonlar bizni mehmonxonaga kuzatib, qaytib ketishdi. Shunda allakimdan Andijonga ketaylik, degan taklif tushdi. Vaqt yarim kechadan oshgan, mashina yo'q.

– Xohlasang, mashinani men topaman! – dedi Said Ahmad aka.

Ko'chaga chiqdik. Bunaqa betartibliklarni uncha yoqtirmaydigan Nosir Fozilov – tajang (Nosir akaning sochi ham, o'zi ham, boringki, gapi ham sariq. Tez jahli chiqadi. Ammo nihoyatda rostgo'y, dangalchi odam).

– Qo'y, sariq bolam, xunob bo'lma, hozir yo'lini qilamiz, – dedi Said Ahmad aka yupatib.

Nihoyat «Tez yordam» mashinasi uchradi.

– Jon akalar! – dedi haydovchi elanib. – Sizlar uchun har qancha xizmatga tayyorman. Ammo bu «dejurniy» mashina. GAI to'xtatsa, pravamni olib qo'yadi.

– Ishing bo'lmasin! – dedi Said Ahmad aka. – GAI to'xtatsa o'zim gaplashaman. Sen Nosir, bu yoqqa o'tir, sen bu yoqqa chiq!

«YAQIN KELMA!»



Haydovchi bilib gapirgan ekan. Shaharga kiraverishda chindan ham mashinani GAI to'xtatdi.

– Ana, rasvo bo'ldim! – dedi haydovchi yig'lamsirab.

– Sen jim o'tir, melisa bilan o'zim gaplashaman,

– Said Ahmad aka shunday dedi-da, mashina yoniga kelayotgan yosh leytenantga peshvoz chiqdi.

Leytenant gap boshlamasidanoq to'xtatdi.

– Yaqin kelma, jon ukam, yaqin kelma! Joningdan umiding bo'lsa, yaqin kelma! Bola-chaqang bo'lsa kerak, yaqin kelma!

Leytenant esankirab qoldi. «Nima gap?» deb so'ragan edi, Said Ahmad aka tushuntirdi:

– Bir ukamiz sariq bo'p qoldi. Ishonmasang, o'zing qarab ko'r!

Leytenant ikkilanibroq mashina kajavasining eshigini ochdi.

Sap-sariq xira chiroq ostida, sap-sariq kushetkada xo'mrayib o'tirgan sap-sariq Nosir akani ko'rdi-yu, o'zini orqaga tashladi.

– Voy-bo'o'o! Judayam o'tib ketganga o'xshaydi! Tezroq oboringlar!

O'tkir HOSHIMOVning «Shumlik» kitobidan.

## 1-may – Favvoralar kuni

# SUV, HAVO VA ZAMIN UYG'UNLIGI



MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir  
podpolkovnik  
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir  
o'rinbosarlari  
podpolkovnik  
Azizjon FAYZIYEV  
mayor  
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir  
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar  
Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar  
Abror POYONOV  
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz  
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r  
23402000300100001010.  
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
460010860262877031101179003  
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va  
axborot agentligi tomonidan  
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam  
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1216.  
Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3.  
Hajmi – 6 bosma taboq.  
49794 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:  
Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida  
chop etildi.  
Korxonaning manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.